

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
OLMON TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

5141400 xorijiy tillar va adabiyoti (olmon tili) ta'lim yo'nalishi
402- guruh talabasi Komilxo'jayeva Gulzodaninging bakalavr
darajasini olish uchun *NEMIS TILIDA NUTQIY AKT ETIKETI*
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

N.M.QODIROVA.

Andijon - 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH:Nemis va o'zbek tillarida nutqiy akt etiketi.....	2
BMI mavzusining dolzarbligi.....	7
BMI mavzusining ishlanganlik darajasi.....	8
BMI mavzusining maqsad va vazifalari.....	9
BMI mavzusining predmeti va obyekti.....	9
BMI mavzusining tadqiqot metodlari.....	10
BMI mavzusining metodologik asosi.....	10
BMI mavzusining ilmiy yangiligi.....	11
BMI mavzusining amaliy ahamiyati.....	12
BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi.....	12
BMI ning strukturasi.....	13
1. BOB : Nutqiy akt nazariyasining tarixi	
1.1Nutqiy akt nazariyasining tarixi	20
1.2 hushomad nutqiy aktining tavsifi.....	26
1.3Muloqotda odob-axloq,hurmat-ehtirom tamoyillari	29
1.4Muloqot shakllarining namoyon bo'lishi.....	31
1.5Nutqiy akt va uning ishtirokchilarining tavsifi.....	40
II. Muloqotda odob-ahloq,hurmat- ehtirom tamoyillari.	
2.1 Hushomad paytida so'zlovchi-tinglovchi nisbatlarining berilishi	50
2.2 Hushomad turlari.....	59
-3-	
2.3 Hushomadda modallikning o'rni.....	66
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	70

Mavzu: NEMIS TILIDA NUTQIY AKT ETIKETI.

KIRISH Nemis va o'zbek tillarida nutqiy akt etiketi

BMI mavzusining dolzarbligi

BMI mavzusining ishlanganlik darajasi

BMI mavzusiningning maqsad va vazifalari

BMI mavzusiningning predmeti va obyekti

BMI mavzusiningning tadqiqot metodlari

BMI mavzusiningning metodologik asosi

BMI mavzusiningning ilmiy yangiligi

BMI mavzusiningning amaliy ahamiyati

BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi

BMI ning strukturasi

1. BOB Nutqiy akt nazariyasining tarixi

1.1Nutqiy akt nazariyasining tarixi

1.2Muloqotda odob-ahloq,hurmat-extirom tamoyillari

1.3 Muloqotning rasmiy va norasmiy ko'rinishlari

1.4Nutqiy akt va uning ishtirokchilarining tavsifi

1.5Nutqiy akt va uning ishtirokchilarining namoyon bo'lishi

II. BOB Muloqotda odob-ahloq,hurmat- ehtirom tamoyillari

II.1 Xushomad paytida so'zlovchi-tinglovchi nisbatlarining berilishi

II.2. Xushomadning turlari2

II.3 .Xushomadda modallikning o'rni

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi o'zbek nomini butun dunyoga tanitgan yurtda ilm- ma'rifatning rivojiga, ta'lim-tarbiyaning kelajagi buyuk davlat uchun mustahkam poydevor bo'lishiga imkon yaratdi.

Biz xalqimizning dunyoda xech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli , bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashash uchun bor kuchva imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi xech shubxasiz ,beqiyos axamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirlicimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak bu o'ta muhim ishni o'z xoliga o'zibilarchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlanadigan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin

[Каримов И. А. Юксак маънавият— енгилмас куч. Тошкент. Маънавият, 2009.4—бет]

“Ma'naviyat “ tushunchasi jamiyat xayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi.Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi “ma'naviyat” tushunchasi orqali ifoda etish mumkin. [Каримов И. А. Юксак маънавият— енгилмас куч. Тошкент. Маънавият, 2009.20—бет]

Sir emaski, xar qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari bilan, balki birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. [I.A.Karimov. .1998 5-bet].

Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning

ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarini me'zonidir. Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri - bu ta'lim-tarbiya tizimidir.

Ma'lumki, ota bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu -ma'rifat, ta'lim-tarbiyani, inson kamoloti va milliy ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta ta'lim-tarbiya ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni "xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi".

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim - tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona, qarash, sharqona hayot falsafasi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga

kirib kelayotgan, o'z istedodi va salohiyatini yorqin namoyon etadigan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohimiz. Eng muhimi shundaki, "portlash effekti"ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan, biz tarbiya qilayotgan sog'lom va barkamol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004 – 2009 - yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

2012 - yil 10 - dekabrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning "Chet tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra 2013 – 2014 - o'quv yilidan boshlab, respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va o'gzaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanishi nazarda tutilgan.

2013 - yilning 1 - martigacha chet tilini bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi ta'lim standartlari tasdiqlanishi nazarda tutilgan. 2015 – 2016 –

o'quv yillaridan boshlab xorijiy tillar blogini barcha oliy o'quv yurtlari kirish testlariga kiritilishi nazarda tutilgan. O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi, Davlat aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi va O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston milliy axborot agentligi bolalar va yoshlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda televideniya, shu jumladan mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tilga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitrl yordamida, muntazam ko'rsatib borishni nazarda tutgan.¹

-8-

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lam va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on o'rinli hayoti til va adabiyotidir.² Til katta-kichikligi, eski-yangiligidan qat'iy nazar har qanday millat o'zligining mustahkam qo'rg'onidir. Milliy o'ziga xoslik ko'proq tilda namoyon bo'ladi va etnosning ruhiyati faqat tildagina uzoq saqlanadi.³

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zni eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Karimov I.A.ning: "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

² Avloniy A. Fan, ta'lim, jamiyat. Andijon, 2009, b 111

³ Til va adabiyot Toshkent, 2011, b 14

bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ishni nazariy-ilmiy asosi bo'lib M. M. Baxtinning nutqiy muloqotning barcha ko'rinishlariga «diologik» xususiyati xosdir degan ta'limoti xizmat qiladi. J. L. Ostin va J. R. Syorl kabi lingvofaylasuflarning nutqiy aktlar nazariyasiga mansub g'oyalari xamda I. P. Susov, Sh. Safarovlarning nutqiy interaktiv birliklarni pragmokommunikativ lingvistikaning ko'rinishlari deb tahlil va talqin etish zarurligi to'g'risidagi qoidalari ham ishning nazariy asoslaridandir.

Mavzuning ishlanganlik darajasi

Xushomadni har tomonlama chuqur o'rganishning muhim ahamiyatga molikligi bu mavzuda xorijda bajarilgan ilmiy ishlar miqdori va ko'lam bilan ham o'z tasdiqini topadi. Marion Grayn (Germaniya) xushomad nutqiy akti hodisasini nafaqat bir til jamoasiga a'zo bo'lgan kommunikanlar muloqotida, ya'ni bir etno-madaniy sharoitidagi lisonniy aloqada balki turlicha lisoniy va madaniy

sharoitlarda kechadiggan muloqotda sodir bo'lishi sharoiti va natijalarini ham tadqiq etishda faollik ko'rsatganligi ma'lum. Olima xushomadni «Tinglovchi (yoki xushomad yo'naltirgan boshqa shaxs)ni biror jihatdan undoq yoki bundoq» deb ta'riflaydi. [M.Grayn, WWW interkulturellekommunikation,2008].

V. V. Leontev (Rossiya) xushomadni «hissiy (emotsional) konsept» deb talqin qiladi va turdosh konseptlar bo'lishi «maqtov (похвала)» va «лесть» -(«g'arazli tilyog'lamalik») lar uni farqlantiruvchi jihatlarini keng qamrovli tadqiqotini bajargan. (Леонтьев,1999,а,б) J. Mans va X. Vulfsonlar ingliz tilining amerika varianti materiallari asosida xushomadning 10 ga yaqin strukturaviy modellarini o'rganib chiqqan va bundagi eng ko'p chastotali sintaktik qurilmalarni topishga muvoffaq bo'lgan (Manes, Wolfson 1980,1981).

Ishning maqsadi va vazifalari.

Ishning maqsadi xushomad nutqiy akt kategoriyasini batafsil o'rganib chiqishdan iborat, shunday qilinganda ilmiy tadqiqotlarning o'zaro aloqadorligi tamoyiliga amal qilingan bo'ladi va fanlararo xamkorlikdan ko'zlangan samaradorlikka erishadi. Mazkur maqsaddan ishning oldiga qo'yilgan muayyan vazifalarning bajarilish zarurati aniqlanadi: -10-

- 1) «Xushomad» nutqiy aktining nutqiy aktlar doirasida tutgan o'rnini belgilab
- 2) olish hamda unga xos bo'lgan illokutiv quvvatni oshkorlashtirish va bunda erishiladigan perlokutiv natija muhimdir.
- 3) «Xushomad» nutqiy aktining turlarini ajratish.
- 4) «Xushomad» ning intensional, etno - madaniy, sotsiolingvistik va individual –biologik xususiyatlarini tadqiq etish.

5) Nemis tilida xushomadning nutqiy muloqot odobi tarkibiy qismi sifatida amal qilishning o'ziga xos qonuniyatlari va me'yorlarini topish.

- 6) «Xushomad» ning amaliy-semantik xossalarini tasvirlab berish.

Tadqiqot ob'yekti qilib «xushomad » nutqiy akt kategoriyasi va unga javoban nutqiy harakatlari bilan tanlandi, chunki xushomad mutloq ko'pchilik holatda verbal yoki noverbal javobsiz sodir bo'lmaydi, ya'ni bunday tarkibning voqelanishi tegishli pragmakommunikativ kontekstning bevosita taqozosidandir.

Tadqiqot materiali sifatida XIX - XXI asrga taalluqli olmonzabon adiblar (yozuvchi, shoir va dramaturglar) ning badiiy asarlari, Germaniya, Avstriyava va Shveysariya kino ijodkorlari yaratgan kino va videofilmlar o'rganib chiqildi.

BMI mavzusining metodlari.

Ishda qabul qilingan metodologik yondashuv talqinlashdan iborat bo'lib, bunda quyidagi tahlil usullariga asoslandik. a) kontekstologik tahlil. b) badiiy nutq vositalari \ metafora, metanomiya, tashbeh va perifraza kabilarni lingvostilistik

tahlil etish.

v) sanoq - statistik hisoblash usullaridan foydalanish.

BMI mavzusining ilmiy yangiligi shundaki, bunda xushomad nutqiy akt hodisasini tadqiq etishda to'plangan ilmiy bilimlar va amaliy ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimli tarkibda bayon qilib berish harakati amalga oshirilgan. Interaktiv faoliyat turi bo'lmish « xushomad va unga bildirgan javob harakatlari» hodisasining tasniflash tamoyillari va ularga asoslanib bajarilgan tasniflash amaliyoti sohalararo ya'ni pragmalingsvistika, kommunikativ tilshunoslik hamda nutqiy muloqot tahlili oralig'ida amalga oshirilganligi bilan bungacha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan ajralib turadi.

Ishning nazariy qiymati: Ishda boshlab berilgan ilmiy tadqiqot yo'nalishning ilmiy qiymati uning nutqiy aktlar nazariyasini yanada kengroq va chuqurroq o'rganishida o'z ifodasini topadi deb hisoblash mumkin. Ayniqsa, xushomadning nutq akt ishtirokchilarining muloqotida amal qilishida namoyon bo'luvchi ijtimoiy, madaniy, milliy, ma'naviy, ma'rifiy va biologik xususiyatlariga aloqadorligining tadqiqida namoyon bo'ladigan sifatlari tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari rivojiga ma'lum miqdorda hissa bo'ladi.

Ishning amaliy ahamiyati esa uning aktualligida bo'lib, bundagi qoidalardan va fikrlardan nemis tilining nazariy kurslarida, pragmalingsvistikadan amaliy mashg'ulotlarda, muloqot lingvistikasi bo'yicha maxsus kurslarda va ayniqsa tarjima nazariyasi va amaliyoti mashg'ulotlarida hamda madaniyatlararo va tillararo kommunikatsiya sohasida ish yurituvchilar foydalanishlari mumkin.

Himoyaga taqdim etilayotgan holatlar:

Nemis tilidagi muloqot jarayonida qayd etilgan xushomad nutqiy aktlarning Ekspressivlar qatoriga mansub bo'lib ekspressiv ifdalangan illokutiv maqsad hamda perllokutiv samaraga egaligi bilan diqqatga sazovordir va unda oshkor

ifodalangan performatsiya belgisi yo'qdir.

BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi.

Ilmiy ish natijalari 30dan ortiq ilmiy jurnallarda maqola, 20dan ortiq axborot tezislari va ma'ruzalar shaklida ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

BMI ning strukturasi: Mazkur ish Kirish, 2 bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyot va axborot manbalari ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, jami 11ming saxifadan iboratdir.

I BOB

I.1. Nutqiy akt nazariyasining tarixi. Muloqot tafakkurlash samarasi hamda nutqiy faoliyat jarayonidir.

Ushbu ish doirasida nutqiy muloqotning natijasida voqelanadigan matnni tadqiq qilishning barcha jihatlarini qamrab olmoq mushkul ishdir.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida turli mamlakat olimlari tomonidan kommunikatsiyaning asosiy ko'rinishi hisoblanib kelayotgan muloqotni juda ko'p jabhalarda tadqiqotlar ob'yekti qilib olingani ma'lum.

Muloqot nihoyatda ko'p ma'noli, serqirra balki shu sababdan ham tugal ta'riflanib bo'lmagan juda muhim tushunchadir. Muloqot tushunchasi hozirgi zamon tilshunosligining eng ko'p qo'llanayotgan atamalaridandir. Bu atama ishlatilmagan psixolingvistika va albatta pragmalolingvistikaning biror bir yo'nalishi topilmaydi.

Muloqot tabiatining serqirra ekani tilshunoslikning bu sohasini tarixiy rivojlanishini belgilab berdi. Dastavval muloqot tushunchasi bilan tildan foydalanishning sotsiologik muammolari bilan qiziqqan tadqiqotchilar va tildan foydalanishning madaniy-ma'rifiy maslali bilan shug'ullangan olimlar ish ko'rdilar. I.Y.Galperinning ta'kidlashicha bu davrning tadqiqotlarida muloqotga

bir tomonlama qarashlar mavjud edi. (Galperin.1981,18)

M. Fukov esa muloqot deb atalmish nutqiy - lisoniy hodisani ta'riflashga strukturalizm ruhida atamalarini qo'llab quyidagi ta'rifni beradi. «Muloqot yakka-yagona belgilovchiga nisbatan belgi lisoniy - nutqiy hodisa ifodalovchisi bitta bo'lgani holda u orqali ifodalanayotgan ma'no va mazmun birdan ortiq bo'ladi. Muloqot tushunchasiga bu davrda berilgan ta'rifdayoq nafaqat lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar ham e'tiborga olinganligi ma'lum bo'ladi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan muloqotning eng muhim belgisi shundaki u nutqiy hodisa bo'lish muloqot ishtirokchilarining sub'yektiv nuqtai nazari sub'yektiv baholanishini hamda sub'yektiv ta'sirlay olish va ta'sirlash xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan muloqot hodisasi nutqiy faoliyat sub'yektiga tegishli degan hulosasi kelib chiqadi. (Ba'zi tadqiqotlarda muloqotning ushbu xossasini sub'yektivlik boshqalarida esa modallik xususiyatlari deb talqin qilinadi). Mashhur fransuz olimi E. Benvenist muloqotga tilning qo'llanilishi deb ta'rif beradi. Bunday ta'rif muloqot hodisasini muloqot xodisasini suhbat amaliyoti yoki muloqot amaliyoti, og'zaki nutqiy amaliyoti deb talqin qilinishga imkon berdi. XX - asrning 70 - yillaridan boshlab jahon tilshunoslarida og'zaki muloqot (kommunikatsiya) tilini o'rganishga e'tibor kuchaydi va bu qiziqish to'xtanmay davom etmoqda.

Darhaqiqat, suhbat(muloqot) o'ziga xos strukturaga ega bo'lishi o'sha davr tadqiqotlaridan kelib chiqqan xulosasi bo'ldi. Suhbatlashish muloqotning asosiy tamoyili va kategoriyalari shu davrdan boshlab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etib kelindi.

Masalan, O.B. Sirotininaning qayd etishicha og'zaki nutq nutqiy "luqma"larning ommalashuvidan iborat bo'lib, bu ommalashuv alohida ko'zlangamaqsadga ega emas. Almashinayotgan bu nutqiy "luqma"lar umumlingvistik muomalada matn deb

hisoblanmaydi. Keltirilgan iqtibosda ma'lumki, almashinuv(Austausch) muloqotshunoslik ilmining asosiy

tushunchalaridan bo'lib, undan kichikroq nutqiy birliklar sifatida nutqiy akt(Rede Akt) va nutqiy luqma (Replik).Muloqotning asosiy belgisi sifatida hamkorlikda tarkiblantirilayotgan nutqiy mazmun qayd etiladi. Nutqiy muloqotni amalda qo'llanishi deb baholash muloqot aktini sintsktik birliklaridan(gap va so'z birikmasi, Satz und Wortfügung) dan kattaroq birlik deb qarashga asoslanadi. Bunday qarashlar tilshunoslikda formalistik yo'nalish deb ataladi. Aftidan,muloqot aktiga formalistik yondashuv tadqiqodchilarning sintaktik birliklarining ishlatilishidagi ijtimoiy madaniy va kontekstual xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirganliklari natijasidir.Bunga qarama-qarshi o'laroq nutqiy muloqotni vazifaviy (funktional) nuqtai nazaridan qilishni tilning har qanday qo'llanishiga tenglashtirilishi ham mavjud.Nutqiy muloqotga so'ngi nazar bilan yondashuvning quyidagi muhim nuqtlari diqqtga sazovordir:

Birinchidan, inson hayoti uchun tilning vazifalari va tilning qo'llanishi orasida o'zaro bog'liqlik bor.

Ikkinchidan, nutqiy muloqotni ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy tizim deb qarash va alohida vazifalarni ro'yobga chiqarish yuklanganligini tan olish.

Uchinchidan, tilning turkli vazifalarini(informatsiya saqlash,information bilimlarni jamlash va yetkazish) borligini qayd etish.

To'rtinchidan, muloqotga kontekstning tarkibiy qismi deb qarash.

Nutqiy muloqot aktini an'anviy sintaktik birliklardan kattaroq birlik deb ta'riflovchi olimlardan farqli o'laroq ayrim tadqiqodchilar nutqiy muloqot birliklari deb ataluvchi xodisalar ro'yxatini kengroq taqdim qiladilar. Venger muloqotshunos olimi Gabor O.Nagy yuqoridagi munosabatlarga quyidagilarni yozadi. [Als Resultate sprachlicher Äußerungen entstehen](#)

Kommunikationseinheiten. So nennen wir die Mitteilungen, die aus gewissen Gründen als vollständige Einheiten des Sprechaktes aufgefaßt werden können, Es kann ein zweibandiger Roman, ein Zeitungsartikel, ein Gedicht, doch auch ein einziger Satz ja sogar ein einziges Wort des Gesprächs als Kommunikationseinheit betrachtet werden, wenn es in der gegebenen Situation eindeutig ausdrückt, was der Sprecher mitteilen, fragen, wünschen oder befehlen will.

“Nutq izhor qilishlarning samarasi o’laroq nutqiy muloqot birliklari hosil bo’ladi. Yuqoridagi nom bilan biz ma’lum sabablarga ko’ra nutqiy akt hodisasi to’la qonli birliklari deb qabul qilinishi mumkin bo’lgan axborotlarni aytamiz. II qismli roman, gazeta maqolasi kichik she’r va albatta yaxlit bir gap va muloqotda qo’llangan yolg’iz so’z ham kommunikatsiyasi birligi sifatida talqin qilinmog’i mumkin, agar bu so’z ayni shu nutqiy vaziyatda so’zlovchining xabarbermoqchi, so’ramoqchi, istak xohish yoki buyruq, iltimos qilmoqchi ekanini aniq ravshan ifodalayotgan bo’lsa”.

Ishimiz nuqtai nazaridan venger oliming nutqiy akt hodisalari deb gap, so’z birikmalar qatorida oddi birgina so’zni ham nutqiy akt shu jumladan nutqiy akt birliklari qatoridan o’rin berilganligi maqbuldir. Zero, bizning fikrimizga nutqiy akt birliklari qatorida nafaqat mustaqil so’z, balki alohida olingan yordamchi so’z ham xushomad nutqiy hodisasining birliklaridan biri sifatida qo’llanishi mumkin.

Nutqiy akt hodisasini ta’rif va talqinlarini biz keltirga qisqacha bayondan bo’ldiki, ayrim tadqiqodchilar o’z ishlaridan “Muloqot hodisasi” va kommunikatsiya jarayonining o’zaro munosabatlari masalasini muhokama etadilar, ba’zilar esa “muloqot” va “matn” tushunchalarining o’zaro aloqalari xususida munozara qiladilar. Biz esa ushbu ish doirasida E.S.Kubryakova

ta'kidlaganidek muloqot aktini kommunikatsiyaning samarasi deb qabul qilamiz. Chunki bu jarayon natijasi o'laroq yozma matn xosil bo'ladi, Shunga asoslanib ishda tahlil materialini sifatida asosan yozma badiiy asarlardan olingan misollar xizmat qiladi(S.Kubryakova 2000.4-5-bet).

Olimlarning yuqorida bayon qilingan fikrlarini ma'qullagan holda, shuni qo'shimcha qilish joizki, XX-asr oxiri XXI-asr boshlarida nutqiy akt hodisalarining axtirilini nafaqat badiiy matnlar asosida olib borilishi, balki tarixiy, diplomatik, ayniqsa tadbirkorlikka oid yozma matnlar bilan bir qatorda og'zaki muloqot misollariga tayangan holda olib bormoq muloqot nazariyasi va amaliyoti uchun foydali jihatlar beradi deb hisoblash mumkin. Shunday yo'l tutilganda muloqotning ob'yektiv va sub'yektiv jihatlarini to'g'ri tahlil qilish uchun sharoit yaratilgan bo'ladi va bu metod nutqiy akt hodisalarini, jumladan xushomad nutqiy hodisasini talqin etish maqsadiga muvofiq keladi.

Markt.Deutsch für den Beruf (2008.Ausgabe 42,9-8 Eine Runde Lob)Ehrliches Lob.

Nutqiy muloqot hodisasining ishtirokchilari o'zaro munosabati faqat va mudom kommunikatsiyadagina o'z ifodasini topavermaydi. Til tizimi va bu tizimdan foydalanib nutqiy muloqotda ishtirok etayotgan kommunikantlarning nutqiy faoliyatlari o'zaro aloqadorligi masalasi bilan shug'ullangan olmon tilshunosi D.Frank muloqot ishtirokchilarining faoliyatida kommunikativ va interaktiv jihatlarini farqlash zarurligini takidlaydi.(1980.Frank.D. Grammatik und Konversation-1980.36). Ya'ni muloqot ishtirokchilari muloqotdan ko'zlangan maqsadlari faqat muloqotda bo'lishdangina iborat bo'libgina qolmaydi, balki birlariga o'zaro ta'sir o'tkazish va ta'sirlanish jarayonlarini boshdan o'tkazishga "mahkum" dirlar.

Shunday qilib muloqot nutqiy hodisasi uning ishtirokchilari amalga oshirayotgan tafakkurlash maxsuligina bo'lib qolmaydi. Shu bilan birga nutqiy muloqot

hodisasi muloqot ishtirokchilarining hamkorlikda tafakkurlashining uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon hamdir.

Muloqot nutqiy hodisasining aynan shunday jihatlar mavjudligiga o'zbek olimi Sh.Safarov bir qancha ishlarida tadqiqodchilar e'tiborini qaratgan.

Boshqacha aytganda muloqot ishtirokchilarining nutqiy akt jarayonida sodir etayotgan nutqiy harakatlari stixiyali tarkiblashuvchi va o'zaro adaptatsiyalashishga moyil harakatlaridan hosil bo'ladigan yangi hodisa nutqiy muloqot aktidir.

Olimning ta'kidlashicha nutqiy muloqot ishtirokchilari lisoniy energiyalarining o'zaro ta'sirlanishi natijasida namoyon bo'layotgan va uzluksiz davom etayotgan va uzluksiz yangilanib turgan bunday falsafiy g'oya progmalingvistik tadqiqodlar uchun ham metodologik asos bo'la olishi mumkinligini o'zbek tilshunos olimi

A.Nurmonov sinergetika tamoyillarining tibbiyot fanlaridagina emas, balki ijtimoiy fanlarda masalan lingvistikada ham keng qo'llanilayotganligi uning ilmiy metod sifatida e'tirofi deb baholaydi. ("ilmiy tadqiqod metodologiyasi va metodlari" Z.M.Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti "Ilmiy xabarnoma" si 2010.1-son.90-91-betlar). Fransuz tilidagi nutqiy muloqot jarayonida lisoniy satxlarga oid birliklarni selektiv tanlab shaxslarning extiyotkorona faol bo'lishini tadqiq qilgan. A.Mamatqulov "nutqiy hodisalarning voqelanishida har bir individ (shaxs) til tizimidan faqat o'z fikrini ifodalashda, voqelikni anglashda va muloqot extiyojlarini ta'minlovchi vositalarnigina oladi". (A.Mamatqulov. "Fransuz tilida nutqiy xushyorlik sotsiopragmatik xodisa sifatida". KD avtoreferati. Samarqand 2012.22-23-betlar) deb ta'kidlaydi.

Keltirilgan iqtiboslar asosida qayd qilish mumkinki, nutqiy muloqot hodisalarini tahlil etishda muloqot ishtirokchisi bo'lgan so'zlovchi va tinglovchining nutqiy xushyorligi ham muhim tamoyillar qatorida hisoblanmog'i zarur.

Bunday tamoyil va jarayonlarga ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan

olimlarning ko'pchiligi rioya etadilar. Shuni qo'shimcha qilish joizki, mazkur tamoyil va she'rlarni tadbiq qilish barobarida tadbiq qilish yo'nalishi va muayyan maqsadlarga muvofiq bu tamoyil va me'yorlardan selektiv(tanlab ishlatish) foydalanishlar ham uchrab turadi. Hushomad nutqiy akt kategoriyasini o'rganish davomida biz golland tilshunosi Theoder Vann Deyk(Teoder Van Deyk) ko'rsatgan va o'zbek lingvopragmatigi taklif qilgan tamoyil va me'yorlarning tadqiqod tabiati va maqsadlariga moslashtirilgan quyidagi qatoriga amal qilishga harakat qildik.

Birinchidan, tabiiy so'zlashuv tili olinadi yoki tabiiy og'zaki muloqot shakli etib qaraladi.

Ikkinchidan, muloqot konteksti va vaziyati.Nutqiy muloqot lisoniy interaksiya shaklidir.

Uchinchidan,muloqot insonning jamiyat a'zolarining ijtimoiy amaliyotidir.

To'rtinchidan,nutqiy muloqot hodisalarini tasniflashda insoniy jamiyat har qanday a'zosining fikrini inobatga olishini jarayoni deb kiriladi.

Muloqot voqelanishini tadrijitligi ya'ni tildan foydalanuvchilar "on-line" qoidasida faoliyat ko'rsatadilar va o'zlarining avval sodir etgan nutqiy harakatlarini takroran sharhlab mukammallashtirib boradilar.Nutqiy muloqotning o'ziga xos pog'onali sathlardan iboratligi. Masalan: tovush leksik yoki Grammatik shakl, shakl ma'no va (nutqiy) harakat kabilar. Muloqot jarayonida vazifaviyligidan ko'ra ma'no (mazmun) ning ustuvorligi va bundan kelib chiqadigan qonun qoidalarga rioya qilish zarurati yoki qoidalarni o'zgartirish mumkinligi. Muloqot ishtirokchilarining tildan foydalanishda fikrlash hamda nutqiy aktivlik strategiyalarining muloqot nutqiy aktini tushunish va shakllantirishdan iborat. Yo'nalishda o'z kommunikativ maqsadlarini amlga oshiruvlari, axborot olish va axborot berish tamoyillari mafkuraviy-axloqiy

qadriyatlarining hisobga olinishi. Muloqot hodisasining tahlili tilni tadqiq qilishning hozirgacha samarali bo'lgan barcha metodlarini va tilning barcha sathlarini imkon qadar kengroq qamrab olganda bilimning barcha ko'rinishlarini o'zaro nutqiy ta'sir o'tkazish vositalarini hamda jamiyat va madaniyatni tadqiq qilishdan barcha bilim va tajribalarni qamrab olmog'i kerak. Chunki fanlar va sohalararo qarashlar oqibatida qiziqarli va kutilgan natijalarga erishish mumkin.

I. Nutqiy akt ishtirokchilarining tavsifi.

Inson hozirgi zamon ijtimoiy fanlarining barcha meridianlari tutashadigan qutbdir.

Bu nuqtada zamonaviy tilshunoslik sohalarining yo'nalishlari mutloq ko'pchiligi Zamonamiz faninining etnopsixologiy kommunikativlingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika va albatta pragmolingvistika sohalarining predmeti, vazifalari tadqiqod nishonlari va maqsadlari inson tamoyilini asosi deb bilish oqibatida shakllangan fanlar deyishga asoslar yetarlidir. Antropotsentrik tilshunoslikning paydo bo'lishida ham inson omilining xal qiluvchi rol o'ynagani ravshandir. Sistemtilshunoslikdan muomalasiga so'zlovchi va tinglivchi tushunchalarini mutloq zarur tayanch tushuncha sifatida 1-bo'lib kiritgan olim Emil Benvenistdir. U tilning ta'rif-tavsifini tilizimining xususiystlariga tayanib yaratish lozimligini ta'kidlay turib, shunday deb yozgan edi: "Har bir so'zlovchi o'zini sub'yekt deb tasavvur qilganligidan va o'zini o'z nutqida "men" deb taqdim qilayotganligi sababligina til mavjud bo'la oladi. Ana shu "men" ligimga nisbatan mutlaqo tashqaridadir va o'sha shaxs mening aks-sadosi sifatida mavjudlanadi. O'sha shaxsga men sen deb, u esa menga sen deb murojat qiladi. Kommunikatorlar orasidagi ijtimoiy muhit (distansiya) odob-etiket doirasidagi me'yorlarga rasman rioya qilishni talab qiladi va buning oqibatida kommunikatorlarning nutqiy faoliyatda jamiyatda amal qilayotgan ma'lum cheklovlariga amal qilish zarurati kelib

chiqadi. Muallif (so'zlovchi) hushomadining samimiy ekanligi to'g'risida, u namoyon etayotgan his-tuyg'ularga asoslanib va qanday so'zlashdan manfaatdor ekanligiga qarab ismni ohangda zikr etayotganiga ko'ra hamda qanchalik ochiq chexra bilan so'zlashayotganiga ko'ra xukm yuritish mumkin. So'zlovchining rostgo'yligibazan nutqiy akt jarayonida oshkor ifodalangan bo'ladi va u umuman olgandakommunikativ vaziyatining turiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Badiiiy asar muallifining berayotgan izohi kommunikantlarining asl his tuyg'ularini oshkorlashtirishga yordamberadi. "Men do'stona samimiy ohangda dedim: sizga 27 yoshdan ortig'ini bera olmayman". Asl samimiy hushomad to'g'ridan-to'g'ri ijobiy propozitsiyadan iborat bo'ladi. So'zlovchi hushomadining norsamimiyligi esa kontekst taqozosi bilan belgilanadiki, bu ijobiy va salbiy tushunchalardan iborat bo'ladi. Samimiylik shartlari amaliyotga bog'liq bo'lgan holda xaqqoniylik shartlari mohiyatidan kelib chiqadi.

Samimiylik muloqot xususiyati bo'lgan holda, xaqqoniylik mantiqiylik belgisidir. Yuqorida keltirilgan misoldan yaqqol namoyon bo'ladiki, hushomadni so'zlovchi o'z nutqi kechayotgan paytda ushbu nutqiy harakatning samimiyligini ta'minlash. "Juda ajoyib"- dedi oyim... Yuqoridagi misolda bayon qilingan hushomad aktining propozitsiyasi(tushunchalar tarkibi) samimiy emas nosamimiydir. Chunki mazkur propozitsiya tarkibidagi tushunchalar real voqelikdagi xodisalarga muvofiq emas. So'zlovchi tomondan xayratlanish hissini qo'zg'ayotgan intensional xolat so'zlovchining xushomad nutq aktining ob'yektiga bo'lgan munosabatiga muvofiq keladi. Xushomad so'zlovchi shaxsining ruxiy tavsifining xushomadda ifodalanayotgan muddaosi (intensiya) ga munosibligi ushbu xushomadni samimiy xushomadlar toifasiga tasniflashgaimkon beradi.

Xushomadning norasamimiyligi esa xushomad muallifi ifodalanayotgan intensiyaning u kimga xushomad qilinayotganligi va uning nimasiga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Odatda so'zlovchi propozitsiya tarkibida norasmimiy va nomunosib til vositalaridan foydalaniladi. "Xelen yigitning ko'zlariga tikilganicha va ikkalako'lini uning yelkasiga osiltirganicha dedi; -Siz xaqiqiy bakuvvat erkak ekansiz... Ernst- nimadeyapsiz? Xelen- Siz baquvvat erkaksiz. Mazkur epizod badiiy filmdan olingan bo'lib unda tasvirlangan kommunikativ vaziyat va konteksning barcha xususiyatlarini hisobga olganda so'zlovchining (Xelen) xushomadining norasmimiyligi propozitsiyadan foydalanishda uning muallifi o'z muddaosiga yetish uchun vosita o'rnida foydalanayotganligini ochib beradi qiz shunday niyatda yigitga xushomad qilmoqdaki, yigit o'z xotiniga qarshi turishga majbur bo'ladi va oqibatda yigit xushomad so'zlovchi tomonga o'tishi kutiladi. Kommunikatorlarning turli ijtimoiy rollarda ekani, ular egallab turgan maqomga tengsizlik, xushomad nutqiy aktining jamiyat tabaqasining yuqoqriroq qatlamiga mansub adresga yo'naltirilgan norasmimiy xushomadni tilyog'lamalik deb talqin etishga imkon beradi "Sizning oliy zotga mansubligingiz bizni hammamiz uchun guldastani baxolangandek bo'lardi". Bir paytlari Shiller "Makr va muhabbat" drammasida xushomadning ijtimoiy tabaqalarga munosib darajalaridan o'z qaxramonlari muloqotda o'rinli foydalangan. "_____". Ya'ni xushomadning quyi tabaqa vakilidan yuqori tabaqa vakiliga yo'naltirilganligi, va aksincha boy-badavlat shaxsdan yo'qsil kimsaga yo'naltirilgan ko'rinishlari kabi. Bizning nazarimizda F.Shillerning mazkur drammasida xushomadning ko'rinishi bir necha joyda muallifga samimiy xushomad shaklidan o'rinli foydalanish imkonini bergan. Kommunikatorlarning nafaqat suhbatdoshiga, balki, o'z-o'ziga ham yoqimli hislar nasib etuvchi xushomad so'zlarining ahamiyati asardan olingan

quyidagi parchada ko'rish mumkin.

Frau Ah, guten Morgen, Herr Sekretare, Hat man auch weder einmal das Vernugen von Jhnen?

Wurm: meinerseits, meinerseits, Frau Base? Wo entspricht, kommt ein Kavaleirsgnade, burgerliches vergnugen in gerechte Rechnung.

Frau: Was Sie nicht sagen, Herr Sekrtare! Des Hern Majors von Walter hohe Gnaden machen uns wohl je und je das Blasier, doch verachten wir derum neimand.

O'z vaqtida Potterdamlik Erozulik xushomadning 2 turi to'g'risida fikr yu ritib uning bir xil zaxarda tankidning vositasi bo'lib satiraga nishon bo'lganlarni o'ldirishi xam mumkin. Boshqa bir xillari esa ruxiy tushkunlikdagi bechoralar, bemorlarni ruxlantiradi, o'ziga ketganlarni xushyor tortiradi, sergaklantiradi, xamdartlarni yanada yaqinlashtiradi: (Rotterdamskiy 1963: 163) . Xushomadning bu 2-chi xilini biz ko'rib chiqayotgan xushomadni xodisasining turiga kiradi deb xisobladik. Xushomad tufayli faqat hamsuhbatga balki o'ziga o'zi xam samimiyroq va yoqimliroq bo'lib qolishini quyidagi parchada kuzatishimiz mumkin.

-Rose Inge Sie'' sehen absolet tadells!

Ro: Xar kuni shuni takrorlaganday bo'lyapsizmi?

Sie sehen von Tag zu Tag junger aus.

Chunki, siz xar kuni yasharib ketyapsiz-da!

Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, adresat uchun kun sayin oz miqdorda bo'lsada xushomad eshitish extiyojga aylanib qoladi. Chunki yaqinlashib kelayotgan keksalikni ozgina muddat bo'lsa ham unutish imkoniyati shundan paydo bo'ladi va bu xushomad keksayib borayotgan ayolga o'zini yoshlik qiyofasida his etishi va ko'tarinki kayfiyatda bo'lishiga imkon yaratadi. Adresat o'z xususida aytilgan

yuqoridagi kabi so'zlarning o'ta samimiy emasligini biladi. Aytilayotgan jumladan propozitsiyasi haqiqtdan yiroqligini tushunib turadi. G'arazli xushomadning shunday turi ham borki, u qandaydir g'arazli maqsadaga suhbatdoshni ko'ndirishga intiladi. Bu yo'lda u har qanday usul va vositalardan qaytmaydi.

Misol: Siz farishtani o'zginasisiz! Sie sind tatsichlich eine Engelin

Oqibatda adresat hushomadgo'yning ko'zlagan g'arazidagi manfaatiga mos keluvchi qarorga kelganini o'zi ham bilmay qoladi, ya'ni „adresat tuzoqqa tushdi“.

Siz farishtani o'zginasisiz! Sie sind tatsichlich eine Engelin!

O'zining g'arazli muddaosiga yetgach xushomad muallifi o'zining uyiga tomon ko'tarinki kayfiyatda jo'nab qoladi. Xushomadgo'yning bunday nosamimiy va g'arazli muomalasidan voqif bo'lgan do'stlari xushomadgo'y ayniqsa u turib dugonasining boshiga tushgan ayriliqli vaziyatdan qutultirish maqsadida shunday qilimganligini sidqidildan tushuntiradi. Xushomad nutqiy akt kategoriyasining samimiy yoki nosamimiyligi jihatdan nutqiy muloqotning sub'yektiv omillariga bog'liq bo'ladi, boya'ni kommunikantlarning ruxiy holatiga, ular orasidagi masofaning yaqin-uzoqligi va albatta umumiy kommunikativ muloqot vaziyatiga aloqador bo'ladi. Xushomad shundagina samimiy deb hisoblanishi mumkinki, agar xushomad muallifining inyensional xolati u aytayotgan gapning haqqoniyliigi va bu jumla vositasida ifodalanayotgan his-tuyg'uga mos kelsa, muloqot paytida kommunikantlar namoyish qilayotgan maqom yoki vazifani hisobga olish bilan nosamimiy xushomadni samimiy xushomaddan farqlashga imkon tug'iladi. Muloqot paytida kommunikantlarning munosabatlarida muvozanat mavjud bo'lishi xamda ularning egallagan o'rinlardagi tengsizlik xushomadning g'arazli yo'nalishda bo'lishining omillaridandir. "Jaust"

tragediyasidan misolda suxbatdoshlar egallagan naqldagi tengsizlik

hushomadning qanday ta'sir etishini ko'rsatib beradi: _ _ _ _ _

Hushomad lisoniy nutqiy o'yin sifatida muloqot qatnashchilarining birgalikdagi faoliyatida namoyon bo'laroq hushomad soddalashgan o'yin sifatida o'ziga xos ayrim xususiyatlarga egadir. Bu o'ziga xoslik birinchidan nutqda xushomadni qo'llash qoidalarini egallaganlikda ko'rinsa, ikkinchidan mazkur xususiyat xushomad shaklining an'anaviyligida ko'rinadi. Hushomad o'ziga albatta aks reaksiya bo'lishini taqozo etadi. Aks reaksiya esa, hushomadni qabul qilinishi, rad etilishi yoki o'zga shaxsga qayta yo'naltirishidan iborat bo'lishi mumkin. "Hushomad" shartli o'yinida ishtirok etuvchilar bu jarayonda ro'llarni o'zaro taqsimlab oladilar. Ro'llarning taqsimoti muloqotning malum bir bosqichida zarur tutilgan suhbat strategiyasi va taktikasini taqozo etadi.

I.3. Muloqotda odob-ahloq, hurmat-ehtirom tamoyillarining amal qilish xususiyatlari.

O'rganilayotgan lisoniy va nutqiy muammolar orasida shaxslararo muloqot (muammosia von Augensicht-zu Angesicht-Interaktion) yuzma-yudan z va madaniyatlararo muloqot (Interkulturelle Kommunikation) katta o'rin tutmoqda. Bu ishning muhim jihati ularning muloqotining etnospisifik va birlashtiruvchi xususiyatlarini topishdan iboratdir. Insonda nutqiy xulq-atvorini boshqarib turuvchi omillardan bo'lgan va zamonaviy tilshunoslikda etiket atamasi bilan belgilangan lisoniy va g'ayrilisoniy vositalar har qanday madaniyatning muhim tarkibiy qismidir.

Olmonzabon lingvomadaniyatida etiket feodal zadagonlar madaniyatining mahsuli sifatida shakllangan. Mazkur lingvomadaniy hodisani jiddiy tadqiq qilgan N.I. Farmanovskaya bergan ta'rifni qabul qilib ushbu ishda etiketni nutqiy faoliyatini boshqari turuvchi qoidalarini tizimi deb ta'riflandi. Bu tizim

barqarorlangan turg'unmuloqot formulalari (assallomu: xayr)dan tarkib topadi va ular odatda lisoniy jamiyat tomonidan suhbatdoshlar aloqasini yo'lga qo'yish va zarur paytda bu aloqani qo'llab-quvvatlash yoki o'rni bo'lgaan zarur pallada uzib qo'yish tavsiya etilgan bo'ladi. Bunday nutqiy etiket formulalari qatoriga salomlashuv, murojaat qilish, xayrlashuv, tanishuv, uzrxoxlik, tashakkur bildarish, tabriklov, istak-xoxish bildirish, iltimos, hushomad kabi turlari kiradi. Nutqiy etiketni ijtimoiy shart-sharoitlari bilan belgilanuvchanligi masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar nutqiy muloqotning vaziyatining yuqorida tilga olingan etiket ijtimoiyligidan kelib chiqadigan barqaror va o'zgaruvchan nuqtaiy vaziyatlarni farqlash zarurligini ta'kidlaydilar. Bundayvivo'nalishdagi tadqiqotlarda etiketning dialog sifatida ko'zga tashlanadi, vzotan etiket birinchi navbatda dialogda qo'llanadi va qolaversa etiket maqomi turlicha bo'lgan suhbatdoshlar muloqotini yo'lga qo'ymoqqa xizmat qilishi kerak. Ijtimoiy nuqtaiy nazaridan qaraganda me'yoriy va g'ayrime'yoriy nutqiy xullq-atvor turlarini tasniiiiiflash mumkin. Shaxslaro me'yoriy talablarga mos keluvchi xulq-atvor etiket me'yoriga xilof deb tan olinsa, umumjamiyat me'yorlariga mos keluvchi xulq-atvor esa, etiketga mos keluvchi deb qabul qilinadi. Jamiyatda inson xulq-atvorini boshqarib turish usuli sifatida etiket nafaqat diplomatik (protokolga muvofiq)muloqotdagina emas, balki ma'rifatli suhbatdoshlarning g'ayrirasmiy aloqalarida ham namoyon bo'ladi.

Kishilarning norasmiy muloqotida iste'mol etilgan etiket formulalari ko'pincha hurmat-ehtirom kategoryalarining ifodasi deb ta'birlanadi. Garchand ushbu kategoryalar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarishlarga uchrab yaqinlashib qolgan bo'lsada, ular harxolda o'ziga xoslik va betakrorliklarini saqlab qoldilar. Hurmat-ehtiromning odob ko'rinishlaridan farqini o'zbek va nemis maqollarida quyidagicha takidlanadi. «Sen ham Siz ham bir og'izdan chiqadi». (Yaxshi so'z

jon ozig'i). «Gutes Wort findet guten Ort».

Etiketni o'rganish antik [Rim,Gretsiya] zamonlarda boshlangan bo'lsa xurmat-ehtirom tushunchalarni nazariy jihatdan tadqiq etishda til hodisasi deb qarala boshlangan. Uning jiddiy tadqiqotlari lingvopragmatika doirasidagi va nutqiy muloqotga bevosita aloqador tamoyillar tizimi sifatida g'arb dunyosida keng va chuqur o'rganib kelinmoqda. Xurmat va ehtirom tamoyili ko'pchilik tadqiqotchilarning tan olishiga barcha tillarga hos bo'lgan va muloqotni ortiqcha konfliktlarsiz ro'yobga chiqarishi shart sharoitlardan deb hisoblanadi. Nutqiy xulq-atvor me'yorlari esa ma'lumki muayyan tilda so'zlashuvchi xalqning ma'daniy- ijtimoiy tarihiy hususiyatlari bilan belgilanadi.

(Gumbold. A.A.Potebnya, G.V.Kolshanskiy, Farmanovskiy.)

Xurmat-ehtirom tamoyilini tariflashda ayniqsa uning suhbatdoshlar nutqiy hamkorlikdagi o'zaro hatti-harakatlarni tartibga solib turuvchi boshqa tamoyillar bilan munosabatlarini aniqlab beradigan turli fikrlar mavjud.

Masalan, N.I.Farmanovskaya, R.Ratmayer kabi bazi tadqiqotchilar xurmat-ehtirom tamoyilini nutq etiketlari sohasiga taaluqli bo'lgan va muloqot ishtirokchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi vosita deb qaraydilar.

An'anaviy muloqotshunoslikka oid ishlarda nutqiy etiket kommunikatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi deb qaraladi. Zotan bu shart-sharoitlar tadqiqotchilar tomonidan nutqiy xulq-atvorni boshqarib turuvchi oilalarning majmuasi sifatida talqin etiladi.

Ushbu hodisaga hozirgina bayon qilingan tuqtai-nazarga mutlaqo zid bo'lgan qarashlar ham mavjud. Hurmat-ehtirom tamoyili olmon tadqiqotchisi K. Verchofet tomonidan pulga o'xshatiladi. Yani bunda takidlanishich hurmat-ehtirom ijtimoiy hodisalarni lingvistik zaxira vositadirki, bu vosita xar qanday ijtimoiy vaziyatda muloqot amaliyotida qo'llanishga yaroqlidir.

Ushbu olimlarning konsepsiyasiga muvofiq hurmat-ehtirom munosabatlarini yaxshilash maqsadida (in Beziehungsarbeit) qo'llanadi.

Bundan shunday hulosalar kelib chiqadiki, mazkur nazariya talqinida hurmat-ehtiromning yo'qligina emas, balki uning keragidan ortiq darajasi ham salbiy natija beradi. Hurmat ehtiromning yuqori natijalari nafaqar vaziyat taqazosiga ko'ra yoki ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq tarzda balki, etnomadaniyatga hamaloqodar tarzda namoyon bo'ladi.

Hurmat - ehtirom (nutq odobi) hukmron ideologiyaga muvofiqlashib bo'rish jarayoni kechishini ko'rsatdi. Ijtimoiy - siyosiy muhit 1 tildan

Muloqotning rasmiy va norasmiy ko'rinishlarining o'zaro munosabatlari.

Nutqiy muloqot aktini sotsiolingvistik nuqtai-nazaridan tadqiq qilishida uning 2 xil ko'rinishi e'tiborga loyiq ekani ma'lum.

1. si norasmiy muloqot aktlari (shaxsiy).
2. si rasmiy muloqot aktlari (instutsional).

Ushbu tasnif ayrim tadqiqodchilar tomonidan mazkur muloqot xilini (ko'rinishlarini) tadqiq etishda qo'llangan izlanish uslubi qabul qilinganligi ma'lum. Darhaqiqat tadqiqot amaliyoti davomida mutloq norasmiy muloqot qayd etiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, muloqot aktining har bir turiga kommunikantlararo munosabatlarining o'ziga xos me'yorlari mavjud bo'ladi. Muloqot ishtirokchilari nazarlarini suhbatdoshga oshkor etishga harakat qiladi. Kommunikantlarning muloqat jaroyanidagi faolligi bu bilan to'xtab qolmaydi. Shu vositasi bilan suhbatdoshning shaxsiy sifati, xislati, fazilati balki nuqsonli jihatlaridan to'laroq malumot olishga intiladi. Muloqotning yuqorida tavsiflangan turli (ya'ni norasmiy muloqot) ma'ishiy va umum insoniy yo'nalishdagi kommunikatsiyalar sharoitida namoyon bo'ladi. Malumki, odatiy, ma'ishiy mavzudagi muloqotturi tarixan qaraganda muloqot hodisalarning

eng qadimgisidir. Turish turmushga aloqador muloqot esa ko'pincha ozmi ko'pmi badiylashtirilgan monologlar ko'rinishida ifoda etiladi. Ma'ishiy mavzudagi muloqotning xususiyatlarini tadqiqotchilardan (Devekin, 1979. Kolegayeva 71/ nemetskiy razgavorniy rech) (Kolshanskiy 99/ Kolegayeva 71/ inostrannix yazik shkole. 1985 11-14 sahifa Wunderlich Metzling Zurentwicklung prozeduraler Dialogmole. (Im Dialogmuster und Dialogrosesse .- Hamburg Buske 1981 9. 51-57).

Muloqot aktining qayd etilgan ikkinchi turida ya'ni rasmiy kommunikatlarning har biri muayyan bir ijtimoiy guruhning vakili sifatida belgilanadi. Shu boisdan muloqot ishtirokchilarining muloqotda ular bajaradigon ro'llari va tutgan maqomlariga muvofiq yoki nomuvofiq ekanligi ushbu lisoniy jamiyatda qanday ijtimoiy Institutlar faoliyat ko'rsatayotgan va bu lisoniy jamiyat o'z tarixining qanday bosqichida ekaniga bog'liqdir.

I.5. Xushomad nutqiy aktida ijtimoiy farqlarning ifodalaninshi.

Xushomad nutqiy aktining ijtimoiy hamkorlikning tarkibiy qismi
deb atalmoqqa yetarli asos bor. Nutqiy aktlarning mazkur categoryasi
xushomad yo'naltirilgan suhbatdosh ya'ni, adresatning mavjudligini
xushomad avtorining mavjudligidan ko'ra ortiqroq darajada taqozo etadi.
Nutq vaziyatiga ta'sir o'tkazib turgan ijtimoiy omillar va kategoriyalar ya'ni
tushunchalar xushomad ifodalayotgan lisoniy vositalargagina va bu vositalar
anglatayotgan semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlargagina emas,
balki xushomad izhor qilinayotgan muloqot vaziyatida joiz – nojoizligiga
ham tasir o'tkazadi. Xushomad va unga nisbatan izhor etilayotgan
munosabatda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi ular
bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari munosabatlar hisobga olinadi. Bu
qatorda vaziyat konteksti muhim bo'lib, bunda xushomad izhor qilinayotgan

vaqt (zamon) va joy (makon) yetakchi o'rin tutadi. Bulardan tashqari tanishli darajasi rasmiy, norasmiylik sifatlari ijtimoiy meyorlar kabi qoidalar ham ahamiyat kasb etadi. Muloqot paytida hushomadning muloqot odobi nuqtai nazardan majburiy ekanligi ham hisobga olinadi. Zero, hushomadga nisbatan namoyon etilayotgan munosabat ham ijtimoiy – meyoriy shartlardan hisoblanadi.

(Теоретический сборник 1998. Аристов С. А. Невербальные компоненты коммуникации. Тверской лингвистический меридиан: (1998, №1. ст. 23 – 30).

Ishning ushbu qismida hushomad nutqiy aktini samaradorligini ta'minlovchi, mazmunini tabriklantiruvchi, strukturasini shakllantiruvchi ijtimoiy qonuniyatlarni tahlil etishga harakat qilindi. Shu maqsadda hushomad ko'rinishlarini ikki tamoyilga ko'ra tasniflash taklif qilindi.

Birinchidan: muloqot ishtirokchilarining o'zaro tanishlik darajasiga ko'ra;

Ikkinchidan: ishtirokchilar orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy masofaga (distantiya) ko'ra. ("Muloqot psixologiyasi" 2006. N. Mahmudova).

Birinchi tamoyilga ko'ra ya'ni, avtor va adresatning tanishlik darajasini belgilash imkoniyati butun radiopesa, badiiy film va dramatik asar hamda nasriy badiiy matnning yahlitligini tahminlashga va kommunikantlar muloqoti kechayotgan muayyan nutqiy vaziyatning tahliliga asoslanadi.

Tanishlik darajasi nafaqat vaqt (zamon) chegaralari bilangina emas, balki munosabatlarning yaqinligi hamda birgalikda boshdan kechirilgan hayotiy vaziyatlarning bardavomligi bilan ham belgilanadi. Muloqot ishtirokchilarining tanishlilik darajasi va ular orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy masofa tamoyiliga ko'ra muloqotning quyidagi miqdordagi ko'rinishlari qayd etildi.

Quyidagi qatorda hushomad ko'rinishlarini qayd etish mumkin bo'ldi:ko

Mutloq notanish kishilar muloqoti. Bunday muloqotda ijtimoiy masofa mavjud bo'ladi;

Tanishish bosqichidagi muloqot. (Bunda ham kommunikantlar orasida ijtimoiy masofa saqlanib qoladi).

Tanish kommunikantlar orasidagi muloqot, muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa. Masofa shaxsiy.

Yaqin qarindoshlar orasidagi muloqot (shaxsiy).

Intim munosabatlardagi kommunikantlarning muloqoti. Bunda ishtirokchilar orasida masofa intim, ya'ni eng qisqa bo'ladi.

Ma'ruzachi va talabalar guruhi o'rtasidagi rasmiy masofa vaziyat taqozosi bilan ovozning kuchi baland bo'lishi va talaffuzning adabiy shaklda bo'lmog'ini taqozo qiladi. Tahliliy materiallarni qarab chiqish jarayonida mazkur xildagi misollar uchramadi. Tilshunoslarning qayd etishlaricha muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa va ular munosabatlari yaqinligi ma'lum ma'nod etnomadaniy an'analarga va verbal va noverbal harakatlarning qoida va me'yorlariga bog'liq bo'ladi. (Аристов 1998 й; саҳифа 137)

Hushomad nutqiy harakatining qiymati va ahamiyati ko'pincha muloqotning yuqorida sanab o'tilgan hillariga butunlay bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Hushomad nutqiy harakati begona kommunikantlarning muloqotida eng oz miqdorlarda namoyon bo'ladi. Hushomadning eng ko'p miqdori esa tanish kommunikantlarning muloqotida joy oladi.

Hushomadning mazkur darajada oz miqdorda bo'lishi begona kommunikantlarning o'zaro hushomad qilishlari nojoiz ekanligi bilan izohlanadi.

Bunday hushomad tabiiyki illokutiv (kutilgan) maqsadga yo'naltirilgan

bo'lishi mumkin.

Faust: Mein schönes Fräulein, darf ich wagen

Meinen Arm und Geleit Ihr anzutragen?

Margarete: Bin weder Fräulein, noch schön,

Kann ungeleitet nach Hause gehen.

(Sie macht sich los und ab).

Faust: Beim Himmel, dieses Kind ist schön!

So etwas hab ich nie gesehen.

Sie ist so fitt – und tugendreich

Und etwas schnippisch doch zugleich.

Der Lippe Rot, der Wange Licht.

Ushbu vaziyatda hushomad nojoiz ekanligidan yosh qiz Margarit tomonidan

o'z sha'niga haqorat sifatida qabul qilinadi. Zero, Faust yonidan tasodifan

o'tib qolgan ma'suma qizga kutilmagan tarzda qo'lini uzatib bir dam

hamrox bo'lmoqni taklif qiladi. Ushbu o'rinda hushomad aktining

perlokutiv (kutilmagan) effekti Margaritning hushomadga javoban

ko'rsatgan munosabatining verbal va nonverbal tarzda ifodasi sifatida

namoyon bo'ladi.

Bin weder Fräulein nach schön. (verbal ifoda xolati). Nonverbal munosabati

esa asar mualliflari tomonidan quzidagicha izohlanmoqda. Sie macht sich los

und ab. Mazkur hushomadning bundaz samarasizligi nimada

ifodalaganligiga quyidagicha ifodalash mumkin. Hushomad ishtirokchilari

o'rtasidagi ijtimoiy masofa me'yorini buzilganligida ya'ni, ijtimoiy va shaxsiy

jihatlar me'yorining aralashtirib yuborganligida. Faust o'z hushomadining

adresantiga nisbatan so'zda va amalda yo'l qo'ygan hatti – harakati bilan

adresantning shaxsiy daxlsizligi va erkinligiga tajovuz qildi ya'ni, olmon

ma'daniy an'anasi doirasida bunday muomalaga salbiy baholanishi

tabiiydir. Hushomadning adresant qo'llangan mavzu yo'nalishi shaxsiy

intim harakterdagi muloqot xilini taqozo qilgan bo'lardi.

Oralarida yaqinlik munosabatlari mavjud bo'lgan kommunikantlarning

muloqoti o'ziga hos jihatlarga ega bo'ladi va bunday suhbatdoshlar

guruhida hushomad nutqiy aktining voqelanishi ayrim muhim omillarga

bog'liq bo'ladi. Munosabatlarning yaqinligi, o'zaro daxldorlik mavjudligi,

xis –tuyg'ularning, quvonch va tashvishlarning umumiyliги ular ishtirok

etayotgan muloqotning shaxsiy bo'lganini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan kommunikantlar juftligi quyidagi tarkibda namoyon

bo'ladi:

Faust bilan Margarit ishtirokidagi hushomad notanishlar o'rtasida, (yigit va

qiz), (turli jinsga oid shaxslar).

Sofiy bilan Ledi o'rtasidagi hushomad yaqin tanishlar. Ich kenne sie ja, seit

17 Jahre.

Luiza bilan Ferdinand o'rtasidagi hushomad intim guruhga oid bo'lgan

shaxslar orasida uchraydi.

Prezidentning Ferdinandga hushomadi (ota – o'g'il).

Muloqot ishtirokchilarining tanishish bosqichida ekani muloqotda ham

hushomad qilmoq imkonini beradi.

Ledi va Luiza sahnasi: (368 – 369 „Kabale und Liebe“).

(Ayol va qizcha). Keltirilgan misollarda mavjud bo'lgan nutqiy akti

jarayonida adresant – adresatga ruhiy yoki ahloqiy tasir o'tkazish maqsadi

sari hushomaddan foydalanadi. Bunday muloqot shaxslararo masofada

mavjuddirki, dramatik asardagi bunday kinoyali muhitning ifodalanishda

asosiy rolni quyidagi til vositalari o'ynaydi.

1) leksik 2) gramatik 3) sintaktik 4) pragmatik

Mzkur vositalardan taxlil uchun olingan misollar dramatik asarlarda eng ko'p uchraydi.

Baxolash ma'nosidagi emotsional leksika. Bunday lug'aviy birliklar o'ziga xos alohida ifoda muhitini tashkil qiladi va bu ruhiy sharoitda qahramon xis - tuyg'ularini ifodalash uchun qulay fursat bo'ladi.

Xushomad nutqiy aktini ifodalovchi sintaktik vositalar. Bu vositalar xushomadning tarkibini meyoriyligini taminlovchi xususiyatga egadir.

Bundan tashqari xushomadning sintaktik vositalari aynan shu muhitda aynan shunday nutqiy aktining tarkibida bo'lishi ham tabiiy xoldir.

Dramatik matnda turli eliptik konstruktsiyalarning (wiederholung) mavjudligi ham xos belgilardandir.

Xushomadni ifodalashda emfatik vazifa bajaruvchi ekskomotiv (xis – xayajon) so'zlar (Got sei Dank!)

Turli tarkibdagi so'roq gaplar. (Werfragen, Wortfrage) So'roq so'zli so'roq gaplar. „Satzfrage“ so'roq so'zsiz so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar.

Bunday so'roq gaplar adresatning eshtilgan xushomadga qandaydir javob aytishini talab qiladi. Muloqotning rolli o'yinlarga monand tabiati bu jarayonda ishtirok qilayotgan kommunikantlar tomonidan xushomad nutqiy aktining muayyan hilini tanlab olishda muhim omil bo'ladi.

Ijtimoiy omillarning xushomad nutqiy aktining voqelanishiga, ayniqsa uning pragmatik xossalarini namoyon bo'lishiga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy vaziyatning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Chunki, xushomad hamisha muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladi va xushomadning har qanday kategoryasi

o'ziga xos vaziyatlarda mavjudlanadi. Xushomadning adresanti va adresati vaziyatga muvofiq bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etuvchilar bo'lib harakat

qiladilar. Ular ijtimoiy xulq – atvorning meyorlashtirilgan shakllariga amal

qiladilar. Bu meyorlar esa, ishtirokchilarning muloqot vaziyatidagi maqomi tomonidan belgilanadi.

Podshohning muhojir olimga qilayotgan xushomadi o'zlashtirma nutqiy akt shaklida ifodalangan. Taxlil qilingan xushomad nutqiy aktlarini ishtirokchilar maqomi belgilangan murakkab turlaridan deb hisoblamog kerak. Chunki, xushomadlarda va bu xushomadga nisbatan izhor qilingan munosabatlarda muloqot sodir bo'lgan jamiyatda rasmiylik va adolat tamoyillari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Zero, adresant va adresat maqomlari xushomad nutqiy aktining turini belgilab beradi. Shunga asosan muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, yo'nalishi (mavzu bandligi) va nihoyat hushomadning muayyan nutqiy vaziyatda joiz yoki nojoizligi ham anglashiladi.

“ Verehrter Herr, entschuldigen Sie, aber es kommt mir schwer an, die richtigen Worte fuer meinen Dank zu finden”. (Alfred Kubin. Die Andere Seite. S – 26).

“ Ich bin der verleger und Redakteuer des Traumspiegels des bestbekannten Jlustreten Blattes, eugene Druckerei!” sprudelte er her vor.

“Es ist gut, dass Sie da sind, auf einem Mann, wie Sie, warten wir schon lange”. (S – 56).

Nutqiy vaziyat ishtirokchilari munosabati ish yuzasidandir. Ularning biri nashriyot muharriri, ikkinchisi nashriyotga kelgan mijoz. Mijozning ishdan ko'zlagan samarasi muharrirning ish mahorati bilinar doirasi kabi sifatlariga bog'liq. Mijozning muloqot paytida qo'llayotgan xushomadli iborasi muharrirning kasbiy mahoratiga yo'naltirilganligi matnda ifodalangan. Bu ifoda quyidagi verbal ifodada mujassamlashgan. Auf einen Mann, wie Sie warten wir schon lange.

Mazkur muloqot ishtirokchilarining bajarayotgan ijtimoiy rollari bu muloqotni buyurtmachi ijrochi muloqoti deb ya'ni, "biznesga" oid muloqoti deb hisoblaydi. Shu sababdan bunday turdagi qo'llangan xushomad aloqasi yo'lga qo'yish vositasi sifatida ishlatilayotganligi va buyurtmaning samarali ijrosini taminlaydigan sharoit yaratishga yo'naltirilganligi ma'lum bo'ladi.

Lass dir helfen, Gerda; mit einem so prachtvollen (qimmatbaho) U nhang (qimmatbaho taqinchoq) muss man vorsichtig umgehen ... Darf ich dir einen Kuss geben? Du weißt, ich liebe dich, wenn du mich auch immer verabscheust hast ... Nein, ich verderbe dir nicht die Frisur, wenn ich dir den Hut abnehme ... Dein schönes Haar! Solches Haar hat Mutter auch in ihrer jugend gehabt. (T. Mann "Buddenbrooks,, S-507)

II. 2. Xushomadning turlari.

(Xushomad taksanomiyasining tabiiy kommunikativ tamoyillari).

Xushomad nutqiy aktini to'laroq tahlil qilinmog'i uchun ushbu ish doirasida kundalik muloqot faoliyatida kommunikanlar nutqida qo'llaniladigan xushomad turli shakllarini qarab chiqishga to'g'ri keldi. Ishning oldingi qismida qayd etilganidek, buning uchun badiiy (beletristik asarlarda), radiopesa shuningdek, badiiy filmlarda qo'llanilgan xushomadning bunday turlicha shakllari tabiiy kommunikatsiya jarayonida uchraydigan xushomad nutqiy aktini tasniflash tamoyillarini tanlab olishga imkon beradi. Xushomad nutqiy akti nutqiy iboralar sifatida, naoyon bo'lib, inson ruhiyatiga tabiatan xos bo'lgan stereotip xolatlarni ifodalash imkonini beradi. Shu sababli nutqiy aktlarda qo'llaniladigan xushomad iboralari kommunikanlarga muayyan darajada xushomadni avtomatik tarzda mazkur nutqiy iborani qayta tarkiblantirish imkoni yuzaga keladi va bu kommunikatsiya jarayonini tabiiy va osonroq kechishini taminlaydi.

Xushomad nutqiy akti og'zaki muloqot birliklari deb qaralganda shu narsa yaqqol

ko'zga tashlanadiki, mazkur til vositasi og'zaki adabiy nutqning o'ziga xos tarkibiy qismi o'laroq o'zida ma'lum darajada meyoriylik, emotsionallik, spontanlik kabi nutqiy xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

Fan tarixida ildizlari Aristotelga borib taqaluvchi tasniflash tizimining asosiy vazifasi sifatida tasniflash meyorlarining mohiyatini belgilab olish zarurdir.

Bunday me'yorlarning mohiyati tashxizlovchi, diagnozlovchi belgilarda namoyon bo'ladi. Mazkur belgilar tasniflash natijasi bo'lmish guruhga daxldor bo'lgan mutloq ko'pchilik matnlarga majburiydir. Bu belgilar asosida ajratilgan guruhlar, sinflar jumladan xushomad nutqiy aktining guruhiga taaluqli mutloq ko'pchilik shakllari ham o'zaro o'xshash belgi va sifatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun faraz qilamizki, "tutqich bermas tabiiylik" darajasi xushomad nutqiy aktini biz taklif qilayotgan tabiiy pragmakommunikativ tasniflash tamoyiliga amal qilinishini taqozo etadi. Rus tilshunos olimi A. Ya. Shaykivich qayd etishicha "olimlar allaqachon anglab yetdilarki, tabiiy tasniflash tamoyillari asosida (poydevorida) yotgan g'oya bosh tabiiy tasniflash metodining pragmatik qiymatidadir.

Ushbu pragmatizm asosida lingvistik obyektlarni ko'plab umumiy bo'lgan xususiyatlarga asoslanib tasniflaydilar. [Шайкеевич Сборник научных трудов. МГПИЯ 1978 г. 22 – 25 О. Естественных классах в лингвистике]".

Shunday qilib lingvistikada ham turli belgi va sifatlardan foydalanish (masalan: funkstional, morfologik, distributiv qurshov kabi) tadqiqot obyektlarini guruhlarga ajratishda muhim uslubdir. Shunga asoslanib tadqiqot maqsadida to'plangan misollar majmuasini o'rganib chiqishda obyektning tabiatiga xos belgilariga asoslanib tasniflash ma'qul ko'riladi. Xushomad nutqiy aktini guruhlarga ajratishda qo'l kelgan asosiy tamoyillari quyidagilar deb hisoblanadi. Adresat intensiyasining darajasiga ko'ra.

Odob – etiket meyorlariga muvofiqligiga ko'ra.

Xushomad mazmunining oshkora - yashirinligiga ko'ra.

Xushomad maqsadini samimiy - nosamimiyligiga ko'ra.

Shunday qilib xushomad nutqiy aktini unda adresant intensiyasini ifodalanishi darajasiga ko'ra tasniflash mumkin deb xisoblanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq xushomad nutqiy aktlari ko'chirma (bevosita) va o'zlashtirma (bilvosita) xushomad turlariga bo'linadi. Bularning birinchisi odob meyoriga xos yoki odob meyoridan tashqari kabi kichik guruhlariga tasniflanishi mumkin.

Malumki har qanday nutqiy intensiyani ifodalashda adresant nuqtai nazarida munosib ko'rilgan til birliklari tanlab olib qo'llaniladi. Bunday tanlov xushomaddan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq semantik mazmunni zarur darajada ifodalanishini taminlaydi. Bazan esa xushomadni ifodalovchi til birliklari "ochiq matn" bilan ifodalanmaydi va buning oqibatida adresant intensiyasida qo'llangan semantik mazmunni ifodalanishlik darajasi to'laligicha anglashilmaydi. Bunday sharoitda qo'llangan xushomad nutqiy aktlari "oshkor xushomad" yoki "yashirin (pardalangan) xushomad"larga ajraladi.

Shuningdek xushomad muallifining ifodalashdagi samimiyat tamoyiliga qay darajada amal qilishiga ko'ra ham mazkur nutqiy aktlarni alohida guruhlariga ajratish mumkin.

Kommunikantlarning muloqot jarayonida o'zaro tasir o'tkazishi dinamik tabiatda kechuvchi faoliyatdir. Muloqot jarayonining bunday sharoitini xisobga olganda xushomad nutqiy akti interaktsiya jarayoni ekani ma'lum bo'ladi, chunki

har qanday nutqiy muloqot avvalombor va albatta dialogda voqelanadi; dialog esa ishtirokchilardan birining tashabbusi bilan boshlanadi va ikkinchi ishtirokchining javoban izhor etgan nutqiy harakatidan tarkib topadi. Nemis tadqiqotchisi

Wunderlichning yozishicha esa nutqiy akt butunicha tashabbusga muvofiq bo'lishi mumkin emas. Bizningcha har bir kommunikantning alohida nutqiy qadami (luqmasi) o'z tabiatiga ko'ra ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilganligi tufayli ham tashabbusga muvofiqlik xususiyatiga ega bo'ladi. Pragmalingvistika nuqtai nazaridan dialog tarkibiga kiruvchi nutqiy aktlar o'zaro illokutiv (majburiylash) tamoyili bilan bog'liq bo'ladi. (Wunderlich: 1976 y.)

Shunday bo'lsada xushomadning muallif maqsadiga binoan vazifa bajaradigan ko'rinishi ham borki; xushomadning bunday ko'rinishini krperlokutiv (mustaqil) xushomad deb atash mumkin. Illokutiv (mustaqil bo'lmagan) xushomad nutqiy akti undan oldin sodir bo'lgan nutqiy aktning illokutiv maqsadi tufayli sodir bo'ladi. Olmonzabon lingvo madaniy muhitda sodir etilgan nutqiy muloqotning etno madaniy xususiyati bunday xushomadning illokutiv (mustaqil bo'lmagan) nutqiy harakat sifatida voqelanishiga sezilarli tasir o'tkazadi. Masalan:

Xushomad nutqiy aktida ijtimoiy farqlarning ifodalaninshi.

Xushomad nutqiy aktining ijtimoiy hamkorlikning tarkibiy qismi deb atalmoqqa yetarli asos bor. Nutqiy aktlarning mazkur categoryasi xushomad yo'naltirilgan suhbatdosh ya'ni, adresatning mavjudligini xushomad avtorining mavjudligidan ko'ra ortiqroq darajada taqozo etadi. Nutq vaziyatiga ta'sir o'tkazib turgan ijtimoiy omillar va kategoriyalar ya'ni tushunchalar xushomad ifodalayotgan lisoniy vositalargagina va bu vositalar anglatayotgan semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlargagina emas, balki xushomad izhor qilinayotgan muloqot vaziyatida joiz – nojoizligiga ham tasir o'tkazadi. Xushomad va unga nisbatan izhor etilayotgan munosabatda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi ular bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari munosabatlar hisobga olinadi. Bu qatorda vaziyat konteksti muhim bo'lib, bunda xushomad izhor qilinayotgan vaqt (zamon) va joy (makon) yetakchi o'rin tutadi. Bulardan tashqari tanishli darajasi rasmiy, norasmiylik sifatlari ijtimoiy meyorlar kabi

qoidalar ham ahamiyat kasb etadi. Muloqot paytida hushomadning muloqot odobi nuqtai nazardan majburiy ekanligi ham hisobga olinadi. Zero, hushomadga nisbatan namoyon etilayotgan munosabat ham ijtimoiy – meyoriy shartlardan hisoblanadi.

(Теоретический сборник 1998. Аристов С. А. Невербальные компоненты коммуникации. Тверской лингвистический меридиан: (1998, №1. ст. 23 – 30)).

Ishning ushbu qismida hushomad nutqiy aktini samaradorligini ta'minlovchi, mazmunini tabriklantiruvchi, strukturasini shakllantiruvchi ijtimoiy qonuniyatlarni tahlil etishga harakat qilindi. Shu maqsadda hushomad ko'rinishlarini ikki tamoyilga ko'ra tasniflash taklif qilindi.

Birinchidan: muloqot ishtirokchilarining o'zaro tanishlik darajasiga ko'ra;

Ikkinchidan: ishtirokchilar orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy masofaga (distsantsiya) ko'ra. ("Muloqot psixologiyasi" 2006. N. Mahmudova).

Birinchi tamoyilga ko'ra ya'ni, avtor va adresatning tanishlik darajasini belgilash imkoniyati butun radiopesa, badiiy film va dramatik asar hamda nasriy badiiy matnning yahlitligini tahminlashga va kommunikantlar muloqoti kechayotgan muayyan nutqiy vaziyatning tahliliga asoslanadi. Tanishlik darajasi nafaqat vaqt (zamon) chegaralari bilangina emas, balki munosabatlarning yaqinligi hamda birgalikda boshdan kechirilgan hayotiy vaziyatlarning bardavomligi bilan ham belgilanadi. Muloqot ishtirokchilarining tanishlilik darajasi va ular orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy masofa tamoyiliga ko'ra muloqotning quyidagi miqdordagi ko'rinishlari qayd etildi.

Quyidagi qatorda hushomad ko'rinishlarini qayd etish mumkin bo'ldi:ko

- 1) Mutloq notanish kishilar muloqoti. Bunday muloqotda ijtimoiy masofa mavjud bo'ladi;
- 2) Tanishish bosqichidagi muloqot. (Bunda ham kommunikantlar orasida ijtimoiy masofa saqlanib qoladi).

- 3) Tanish kommunikantlar orasidagi muloqot, muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa. Masofa shaxsiy.
- 4) Yaqin qarindoshlar orasidagi muloqot (shaxsiy).
- 5) Intim munosabatlardagi kommunikantlarning muloqoti. Bunda ishtirokchilar orasida masofa intim, ya'ni eng qisqa bo'ladi.

Ma'ruzachi va talabalar guruhi o'rtasidagi rasmiy masofa vaziyat taqozosi bilan ovozning kuchi baland bo'lishi va talaffuzning adabiy shaklda bo'lmog'ini taqozo qiladi. Tahliliy materiallarni qarab chiqish jarayonida mazkur xildagi misollar uchramadi. Tilshunoslarning qayd etishlaricha muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa va ular munosabatlari yaqinligi ma'lum ma'nod etnomadaniy an'analarga va verbal va noverbal harakatlarning qoida va me'yorlariga bog'liq bo'ladi. (Аристов 1998 й; саҳифа?)

Hushomad nutqiy harakatining qiymati va ahamiyati ko'pincha muloqotning yuqorida sanab o'tilgan hillariga butunlay bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Hushomad nutqiy harakati begona kommunikantlarning muloqotida eng oz miqdorlarda nomoyon bo'ladi. Hushomadning eng ko'p miqdori esa tanish kommunikantlarning muloqotida joy oladi. Hushomadning mazkur darajada oz miqdorda bo'lishi begona kommunikantlarning o'zaro hushomad qilishlari nojoiz ekanligi bilan izohlanadi.

Bunday hushomad tabiiyki illokutiv (kutilgan) maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Faust: Mein schönes Fräulein, darf ich wagen

Meinen Arm und Geleit Ihr anzutragen?

Margarete: Bin weder Fräulein, noch schön,

Kann ungeleitet nach Hause gehen.

(Sie macht sich los und ab).

Faust: Beim Himmel, dieses Kind ist schön!

So etwas hab ich nie gesehen.

Sie ist sofitt – und tugendreich

Und etwas schnippisch doch zugleich.

Der Lippe Rot, der Wange Licht.

Ushbu vaziyatda hushomad nojoiz ekanligidan yosh qiz Margarit tomonidan o'z sha'niga haqorat sifatida qabul qilinadi. Zero, Faust yonidan tasodifan o'tib qolgan ma'suma qizga kutilmagan tarzda qo'lini uzatib bir dam hamrox bo'lmoqni taklif qiladi. Ushbu o'rinda hushomad aktining perlokutiv (kutilmagan) effekti Margaritning hushomadga javoban ko'rsatgan munosabatining verbal va nonverbal tarzda ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bin weder Fräulein nach schön. (verbal ifoda xolati). Nonverbal munosabati esa asar mualliflari tomonidan quzidagicha izohlanmoqda. Sie macht sich los und ab. Mazkur hushomadning bundaz samarasizligi nimada ifodalaganligiga quyidagicha ifodalash mumkin. Hushomad ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofa me'yori buzilganligida ya'ni, ijtimoiy va shaxsiy jihatlar me'yorining aralashtirib yuborganligida. Faust o'z hushomadining adresantiga nisbatan so'zda va amalda yo'l qo'ygan hatti – harakati bilan adresatning shaxsiy daxlsizligi va erkinligiga tajovuz qildi ya'ni, olmon ma'daniy an'anasi doirasida bunday muomalaga salbiy baholanishi tabiiydir. Hushomadning adresant qo'llangan mavzu yo'nalishi shaxsiy intim harakterdagi muloqot xilini taqozo qilgan bo'lardi.

Oralarida yaqinlik munosabatlari mavjud bo'lgan kommunikantlarning muloqoti o'ziga hos jihatlariga ega bo'ladi va bunday suhbatdoshlar guruhida hushomad nutqiy aktining voqelanishi ayrim muhim omillarga bog'liq bo'ladi. Munosabatlarning yaqinligi, o'zaro daxldorlik mavjudligi, xis –tuyg'ularning, quvonch va tashvishlarning umumiyligi ular ishtirok etayotgan muloqotning shaxsiy bo'lganini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan kommunikantlar juftligi quyidagi tarkibda namoyon bo'ladi:

- 1) Faust bilan Margarit ishtirokidagi hushomad notanishlar o'rtasida, (yigit va qiz), (turli jinsga oid shaxslar).

- 2) Sofiy bilan Ledi o'rtasidagi hushomad yaqin tanishlar. Ich kenne sie ja, seit 17 Jahre.
- 3) Luiza bilan Ferdinand o'rtasidagi hushomad intim guruhga oid bo'lgan shaxslar orasida uchraydi.
- 4) Prezidentning Ferdinandga hushomadi (ota – o'g'il).
- 5) Muloqot ishtirokchilarining tanishish bosqichida ekani muloqotda ham hushomad qilmoq imkonini beradi.

Ledi va Luiza sahnasi: (368 – 369 „Kabzle und Liebe“).

(Ayol va qizcha). Keltirilgan misollarda mavjud bo'lgan nutqiy akti jarayonida adresant – adresatga ruhiy yoki ahloqiy tasir o'tkazish maqsadi sari hushomaddan foydalanadi. Bunday muloqot shaxslararo masofada mavjuddirki, dramatik asardagi bunday kinoyali muhitning ifodalanishda asosiy rolni quyidagi til vositalari o'ynaydi.

- 1) leksik 2) gramatik 3) sintaktik 4) pragmatik

Mzkur vositalardan taxlil uchun olingan misollar dramatik asarlarda eng ko'p uchraydi.

- 1) Baxolash ma'nosidagi emotsional leksika. Bunday lug'aviy birliklar o'ziga xos alohida ifoda muhitini tashkil qiladi va bu ruhiy sharoitda qahramon xis - tuyg'ularini ifodalash uchun qulay fursat bo'ladi.
- 2) Xushomad nutqiy aktini ifodalovchi sintaktik vositalar. Bu vositalar xushomadning tarkibini meyoriyligini taminlovchi xususiyatga egadir. Bundan tashqari xushomadning sintaktik vositalari aynan shu muhitda aynan shunday nutqiy aktining tarkibida bo'lishi ham tabiiy xoldir.
- 3) Dramatik matnda turli eliptik konstruktsiyalarning (wiederholung) mavjudligi ham xos belgilardandir.
- 4) Xushomadni ifodalashda emfatik vazifa bajaruvchi ekskomotiv (xis – xayajon) so'zlar (Got sei Dank!)

- 5) Turli tarkibdagi so'roq gaplar. (Werfragen, Wortfrage) So'roq so'zli so'roq gaplar. „Satzfrage“ so'roq so'zsiz so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar. Bunday so'roq gaplar adresatning eshtilgan xushomadga qandaydir javob aytishini talab qiladi. Muloqotning rolli o'yinlarga monand tabiati bu jarayonda ishtirok qilayotgan kommunikanlar tomonidan xushomad nutqiy aktining muayyan hilini tanlab olishda muhim omil bo'ladi.

Ijtimoiy omillarning xushomad nutqiy aktining voqelanishiga, ayniqsa uning pragmatik xossalarini namoyon bo'lishiga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy vaziyatning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Chunki, xushomad hamisha muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladi va xushomadning har qanday categoryasi o'ziga xos vaziyatlarda mavjudlanadi. Xushomadning adresanti va adresati vaziyatga muvofiq bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etuvchilar bo'lib harakat qiladilar. Ular ijtimoiy xulq – atvorning meyorlashtirilgan shakllariga amal qiladilar. Bu meyorlar esa, ishtirokchilarning muloqot vaziyatidagi maqomi tomonidan belgilanadi.

Podshohning muhojir olimga qilayotgan xushomadi o'zlashtirma nutqiy akt shaklida ifodalangan. Taxlil qilingan xushomad nutqiy aktlarini ishtirokchilar maqomi belgilangan murakkab turlaridan deb hisoblamoq kerak. Chunki, xushomatlarda va bu xushomadga nisbatan izhor qilingan munosabatlarda muloqot sodir bo'lgan jamiyatda rasmiylik va adolat tamoyillari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Zero, adresant va adresat maqomlari xushomad nutqiy aktining turini belgilab beradi. Shunga asosan muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, yo'nalishi (mavzu bandligi) va nihoyat xushomadning muayyan nutqiy vaziyatda joiz yoki nojoizligi ham anglashiladi.

“ Verehrter Herr, entschuldigen Sie, aber es kommt mir schwer an, die richtigen Worte fuer meinen Dank zu finden”. (Alfred Kubin. Die Andere Seite. S – 26).

“ Ich bin der verleger und Redakteur des Traumspiegels des bestbekannten Illustreten Blattes, eugene Druckerei!” sprudelte er her vor. “Es ist gut, dass Sie da sind, auf einem Mann, wie Sie, warten wir schon lange”. (S – 56).

Nutqiy vaziyat ishtirokchilari munosabati ish yuzasidandir. Ularning biri nashriyot muharriri, ikkinchisi nashriyotga kelgan mijoz. Mijozning ishdan ko'zlagan samarasi muharrirning ish mahorati bilinar doirasi kabi sifatlariga bog'liq. Mijozning muloqot paytida qo'llayotgan xushomadli iborasi muharrirning kasbiy mahoratiga yo'naltirilganligi matnda ifodalangan. Bu ifoda quyidagi verbal ifodada mujassamlashgan. Auf einen Mann, wie Sie warten wir schon lange.

Mazkur muloqot ishtirokchilarining bajarayotgan ijtimoiy rollari bu muloqotni buyurtmachi ijrochi muloqoti deb ya'ni, "biznesga" oid muloqoti deb hisoblaydi. Shu sababdan bunday turdagi qo'llangan xushomad aloqasi yo'lga qo'yish vositasi sifatida ishlatilayotganligi va buyurtmaning samarali ijrosini taminlaydigan sharoit yaratishga yo'naltirilganligi ma'lum bo'ladi.

Lass dir helfen, Gerda; mit einem so prachtvollen (qimmatbaho) Uhang (qimmatbaho taqinchoq) muss man vorsichtig umgehen ... Darf ich dir einen Kuss geben? Du weißt, ich liebe dich, wenn du mich auch immer verabscheut hast ... Nein, ich verderbe dir nicht die Frisur, wenn ich dir den Hut abnehme ... Dein schönes Haar! Solches Haar hat Mutter auch in ihrer jugend gehabt. (T. Mann "Buddenbrooks,, S-507)

Kann Euch nicht eben ganz verstehen. Das wird nächstens schon besser gehen, wenn Ihr lernt alles reduzieren und gehörig klassifizieren.
(J. W. Goethe. Faust. S – 79)

Yosh shogird yigitning o'ziga nisbatan ifoda etgan tanqidiy nutqiy harakatiga Mefisto tomonidan izhor qilingan javob luqmasi (nutqiy akti) adresatga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalovchi xushomad nutqiy aktining misolidir. Dialog jarayonida sodir etilgan mazkur xushomad dramatik asarda xushomad turlaridan biridir. Vaholanki so'zlovchining o'z – o'zini tanqid yo'nalishida fikr izhor etishi faqat dialoglardagina mavjud bo'lmay, balki, bunday nutqiy harakat monologda ham garchand siyrak bo'lsada, uchrab turadi. Tanqidiy yo'nalishdagi bu ikki nutqiy

harakatlarning farqi shundaki, dialogda javob tariqasida xushomad nutqiy aktini illokutiv keltirib chiqargan sharoit muloqotning ichki ishtirokchisi mavjudligidadir. Faust manologidagi o'z – o'zini tanqid esa illokutiv quvvatga ega emas, ya'ni so'zlovchi o'z nutqiy harakatiga nisbatan javob kutmaydi. Umumlashtirib ifodalaganda dialogdagi xushomad bevosita adresatga yo'naltirilgan bo'ladi. Adresatsiz xushomad esa monologda uchrashi mumkin ekan.

Ba'zan xushomad bevosita yo'naltirilgan adresat II. Shaxs olmoshlari bilan emas, balki III. Shaxs birlik sonidagi shaxs olmoshi bilan yoki atoqli ot bilan ifodalashi ham mumkin ekani ma'lum bo'ladi.

“Allabonöhr! Ich mir eine Ehre, Herr Grünlich! Aber wollen der Herr sich's nicht ein bisschen bequemer machen? Einen Grog nach der ich rufe sofort in die Küche.....”

(Thomas Mann. „Buddenbrooks“ S – 132).

“Horch!” sagte Frau Permaneder und blieb einen Augenblick stehen... “Gerda spielt, wie himlich! O Gott! Dieses Wieb ... sie ist eine Fee! Wie geht es Hanno, Tom?”

(Thomas Mann. „Buddenbrooks“ S – 379).

Г. Г. Поченцов. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. Калинин: Изд. – ва К. Г. У. 1985. – С. 12 – 18.

Ф. Шиллернинг mualliflik uslubiga xos bo'lgan (“Begonalashtirish”) san'ati ayni adresatga bevosita murojaat qilishning dramatik asarlarda eng ko'p uchraydigan xushomadli murojaat shaklidir.

Muloqot paytida adresatning xozir bo'lish bo'lmasligi tamoyiliga muvofiq tabiiyki xushomad yo'naltirilgan shaxsning (adresat) o'ziga yo'naltirilgan yoki

xushomad adresati mavjud emas xolatdagi ko'rinishlari qayd etiladi. Adresatning mavjud bo'lgan hollariga keltirilgan misollar tahlil etildi.

Hushomad paytida Adresat hozir bo'lmagan vaziyatlar 2 xil bo'ladi:

Adresat mavjud, ammo muloqotda ishtirok etmaydi. (ya'ni u III shaxs)

Xushomad yo'naltirilgan adresat hushomad paytida mavjud emas.

Adresat yo'qligida sodir etilgan xushomad muloqotni ishtirokchisi bo'lgan guvoh (III shahs) etiboriga havola qilinadi va bu shaxs hushomadni adresatga yetkazishidan umidvor.

Adresantdan kelib chiqayotgan va III shaxs shoxidligida izhor etilgan xushomad uning adresatiga yetib borishi xushomad tashabuskorida shubha tug'dirmaydi.

Tahlil uchun to'plangan materiallar orasidan marhum kishilar shaniga izhor qilingan "xushomad". (shartli deb nomlash mumkindir).

Bunday xushomad misollari siyrak bo'lsada uchrab turadi ekan.

Ta'ziyanoma (nekrolog) mazmunidagi matn turlarida qayd etilgan bunday nutqiy material odatda marhum insonlar tavsifiga taaluqli sifat, xislat va fazilatlarining bayonidan iboratdir.

Zero rus olimasi. M.P.Brandes ta'kidlaganidek "Nutqda ishlatilayotgan iboralar, so'z birikmalar hamda gapning intensiyaga ko'ra turlari mazkur til birliklari ishlatilayotgan nutq oqimining funksional ko'rinishlariga bog'liq bo'ladi". M. Brandes shu boisdan marhumning sha'niga izhor etilgan xushomad milliy – ma'daniy va ruhiy – ahloqiy an'anaga muvofiq topiladi. Zero, marhumlar to'g'risida barcha ahli kitoblar faqat iliq so'zlar bilan ularning yaxshi ishlari va fazilatlarini zikr etishlari joiz. Shu boisdan mazkur toifadagi nutqiy aktlarni ham xushomad deb hisoblash mumkin.

Misol:

- 1) Xushomad adresati III shaxs birlikda ifodalangan (marhum).

Anne Grüninger. geb. Frank. 9. 6. 1913. - 29. 6. 2006.

Meine liebe herzensgute Frau, meine liebe gütige Mutter und Urgrossmutter, unsere liebe Schägerin ist nach schweren Krankheitsmonaten in die Ewigkeit gegangen.

Sie war der Mittelpunkt unserer Familie.

(Stuttgarter Zeitung Nr. 152. Mittwoch 5 juli 2006).

Ta'ziyanoma mualliflari marhumaning yaqin kishilari (turmush o'rtog'i, o'g'li, kelini va b.) bo'lib, uning timsolida oila ustunini yo'qotganligini izhor qilmoqdalar. Ushbu o'xshash xushomad marhumaning yaqinlari azadorlik xis – tuyg'ularini izhor qilmoqdalar.

Ich danke dir, Herr, mein Gott,
von ganze Herzen und ehre
deinen Namen ewiglich.

Psalm 86, 12. Gertrude Bayh 7. 9. 1919. – 9. 9. 2006.

Eine aussergewöhnliche Frau. Wir danken dir! (Stuttgarter Zeitung Nr. 215. Samstag, 16. September 2006).

Xushomad adresati marhum bo'lsada, xushomad muallifi uni go'yo tirikdek his etmoqda va uning sha'niga g'ayriodatiy ayol ekanini ta'kidlay turib uning bor bo'lganligiga tashakkur aytmoqda.

Xushomad inteksiyasi shunday ayolni turmush o'rtog'i, ona va qaynona qilib bergani uchun yaratganga shukrona izhor qilish va uning juda buyukligiga chuqur qayg'u xissini ifoda qilishdir.

Tabiiyki mazkur xushomad mualliflari yaqin kishilardandir biroq, bu xushomadni intim toifasiga kiritish nojoiz bo'ladi, balki nojoiz xushomad turiga mansub deyilsa to'g'ri bo'ladi.

Malumki, xushomad nutqiy aktining adresati yo'q bo'lgan muloqot muhitida qanday shakllarda va qanday sabab va maqsadlarga ko'ra ishlatilishini qarab

chiqdik. Olmonzabon lingvomadaniy muloqot muhitida xushomadning shunday turlari ham borki, bu turlarini qayd etishga asos bo'luvchi tamoyil xushomadning kommunikantlardan qay biriga yo'naltirilganligiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu tamoyilga ko'ra olmonzabon muloqotda odob – etiketga muvofiq xushomad yoki nomuvofiq xushomad turlari ajratiladi. Odob – etiketga muvofiq xushomad turlari mutloq ko'pchilik xollarda adresat shaxsiga yoki uning biror buyumga, bunga daxldor kishisiga tegishli bo'lishi mumkin. Xushomadning sanab o'tilgan bu turlarining barchasi olmonzabon muloqot etiketiga muvofiq keluvchi xushomad deb olinadi.

Bu misol xushomad adresatining shaxsiga tegishli (xislat, fazilat, odob).

Sochi, ko'zi, komerdiner, brillant.

S. 450

„Wie spielt der Junge! Wie spielt das Kind!“ rief sie aus, indem sie beinahe weinend auf ihn zueilte und ihn in die Arme schloß... „Gerda, Tom, er wird ein Mozart, ein Meyerbeer, ein...“, ...

2) Ushbu misol esa, adresatning buyumiga tegishli.

3) Ushbu misol adresatga daxldor va uning buyumlariga tegishli.

Etiketga nomuvofiq xushomad nutqiy aktlarining so'zlovchining o'ziga yo'naltirilgan xushomadi tan olinadi. Olmonzabon muloqot madaniyati doirasida o'ziga – o'z bo'lagiga nisbatan xushomad nutqiy aktini qo'llash etiketga tamomila zid xisoblanadi. (Selbst lob – Stingt.) Kim o'zini maqtaydi?

So'zlovchining o'ziga – o'zi daxldor narsa yo kimsaga qaratilgan xushomad nutqiy xarakati odatda dialoglarda emas, balki manaloglarda o'rin olishi mumkin.

Dialogda esa tinglovchi kommunikantlar bunday xushomadga nisbatan o'z munosabatini so'zda salbiy baxolashi kuzatiladi, yoki xushomad nutqiy aktiga nisbatan tinglovchi o'z munosabatini sukut bilan ifodalashi mumkin. Chunki

sukut xamisha ham rozilik va qo'llab – quvvatlash alomati bo'lavermasligi tahlil paytida ayon bo'ladi.

(II bob. II. 3. (e)) samimiy nosamimiy xushomad. Xushomad tasnifi va xar bir xushomad ko'rinishini qisqacha tasniflari.

Mazkur ishda xushomad nutqiy akt kategoriyasining samimiylik shartlarining ifodalanish darajasiga ko'ra samimiy va nosamimiy turlarga tasnifladik.

Xushomad samimiy nosamimiyligi uning o'zi baxolayotgan obyektga asl yoki ifoda etayotgan munosabatida ro'yobga chiqadi, ya'ni muallifning kechirayotgan xis – tuyg'usining samimiy yoki nosamimiyligida ko'rinadi. Bunday ayrim vaziyatlarda xushomad shartli bo'ladi, ya'ni rasmiyatchilik amaldagi faktlardan ustunroq bo'ladi. Bunday xushomadni bir shaxsni boshqa shaxs tomonidan extirom bilan tan olishi deb qaraladi. Boshqa vaziyatlarda hissiy baholovchi mazmun rasmiy odob belgisi ko'rinishidan to samimiy xayrixoxlik darajasiga qadar ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ushbu xushomad ko'rinishlari tabiatida namoyon bo'layotgan ikki yoqlama mohiyatni quyidagicha muvozanatga keltirish zarur bo'ladi. Bir tomondan samimiylik bilan shartli rasmiyatchilik mutanosibligiga amal qilish kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan ifodalanayotgan mazmunning originalligi bilan ko'rsatilgan ehtirom shakli o'rtasida munosiblikni taminlash orqali bo'ladi. Shaxslararo muhitda xushomatlarni ijobiy almashinuvi kommunikantlar nutqining maxsus tayyorgarliksiz bo'lishini va zarur darajada samimiyligini talab qiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, xushomadni tayyorgarliksiz (ya'ni spontan) ekanligi adresatga nisbatan nosamimiyligi ("tilyog'lamaligi") ni tezda oshkor bo'lishiga olib keladi.

(Faust. Mefistoning Schulerga xushomadi) Hurmat-ehtirom (nutq odobi) ideologiyaga muvofiqlashib borish jarayoni kechishini ko'rsatdi. Ijtimoiy-siyosiy muhit 1 tildan foydalanuvchi lisoniy jamiyat tarkiban diometral qarama-qarshi

ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda voqelanib borishi oqibatida parchalanib ketgan olmonzabon lisoniy jamiyat sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqardi.

Germaniyaning g'arbiy hududlarida bozor munosabatlari ehtiyojlaridan kelib chiqib muloqotning og'zaki va yozma shakllarida nutq etiketining ko'plab formulalari paydo bo'lda. (Amerikacha). Germaniyaning sharqiy hududlarida esa, nutqiy etiketning sinfiy totalitar strategiyalar talablariga mos bo'lgan etiket formulalari targ'ib qilindi va ular qisman me'yorlashib qoldi.

P.Grays hurmat-ehtirom tamoyilini suhbatdoshlarning hamkorlikdagi nutqiy faoliyatini tartibga solib turuvchi tamoyillaridan deb hisoblaydigan estetik, ijtimoiy va ahloqiy tabiatga molik hodisa deb baholaydi. P. Graysning ilmiy muomalaga kiritgan konversion tamoyillari u targ'ib qilgan hurmat-ehtirom tamoyili bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni suhbatdoshlarning o'zaro hurmat-ehtirom ila munosabatda bo'lishini taqozo qilib turadi. O'z-o'zidan ravshanki, hurmat-ehtiromning barcha tamoyillari avvalom bor va eng ko'p diologlarda o'ifodasini topadi boshqacha aytganda hurmat-ehtirom hamisha suhbatdoshga yo'naltirgan bo'ladi. Hurmat-ehtiromni verbal (lisoniy) ifodalanishi so'zlovchida adresatga daxldor muayyan ma'lumot borligiga bog'liq. Shuni qo'shimcha qilish joizki so'zlovchining ehtirom izhor qilishi u bilan adresat orasidagi ijtimoiy munosabatlarning darajasiga ham bog'liqdir. Tabiatan ehtirom assimetrik mohiyatlidir. Ya'ni adresatga maqbul tushgan ehtirom ifodasi so'zlovchiga nibatan maqbul bo'lishi mumkin. Hurmat-ehtirom tamoyilini ijtimoiy me'yorlashgan muloqotlarda tadqiq qilgan. (L.A.Aznabayeva, 2002.a-40.)

So'zlovchining ehtirom ifodasiga javoban adresat ifoda qilgan hurmatining voqelanishini batafsil o'rganib adresatni ham kommunikatsiyaning sub'yektilgan sifatida baholaydi va uning verbal hamkorligini munosabatlarning kiritadi. Bu tamoyil esa o'z navbatida bir necha qoidalaridan iborat. Adresat unga

korsatilgan hurmat-ehtiromga javoban izhor qiladigan munosabatida :Birinchidan bildirilayotga hurmat - ehtiromni ijobiy baholash. Ikkinchidan salbiy munosabatning darajasini susaytirish:Uchinchidan hamjihatlik qoidasiga rioya qilish:To'rtinchidan kommunikatsiyadgi sherikni ruhiy qo'llab –quvvatlash: 5-chi kamtarlik qoidasi. 6 - chi hissiy munosabatni oshkor ifodalash.Etiket zamonaviy dunyo hamjamiyatida rasmiy va diplomatik doiralardagina taarqalib qolmay balki, norasmiy munosabatlarning kattagina qismini qamrab olmoqda. Etiket ibora va hatti-harakatlarining kommunikantlar shaxsiy hayot javhalariga kirib borishi kommunikatsiyada ishtirok qilayotga shaxsga hurmat ifodalashga xizmat qiladi va bu hatti harakatlarni shakllari bilan yaqinlashtiradi.

II. 3. xushomad nutqiy aktida ijtimoiy farqlarning ifodalanishi

Xushomad nutqiy aktining ijtimoiy hamkorlikning tarkibiy qismi deb atolmoqqa yetarli asos bor. Nutqiy aktlarning mazkur kategoriyasi xushomad yo'naltirilgan suhbatdosh ya'ni, adresatning mavjudligini xushomad avtorining mavjudligidan ko'ra ortiqroq darajada taqozo etadi. Nutq vaziyatiga ta'sir o'tkazib tirgan ijtimoiyomillar va katego'ryalar ya'ni, tishinchalar xushomad ifodalayotgan lisoniy vositalargagina va bu vositalar anglatayotgan semantic, sintaktik va pragmatik xususiyatlargagina emas, balki xushomad izhor qilinayotgan muloqat vaziyatidajoiz – nojoizligiga ham ta'sir o'tkazadi. Xushomad va unga nisbatan izhor qilinayotgan munosabatda muloqat ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi ular bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari munosabatlar hisobga olinadi. Bu qatorda vaziyat konteksti mhim bo'lib, bunda xushomad izhor qilinayotgan vaqt (zamon) va joy (makon) yetakchi o'rin tutadi. Bulardan tashqari tanishli darajasi

rasmiy, norasmiylik sifatlari ijtimoiy me'yorlar kabi qoidalar ham ahamiyat kasb etadi. Muloqat paytida xushomadning muloqat odobi nuqtai nazardan majburiy ekanligi ham hisobga olinadi. Zero, xushomadga nisbatan namoyon etilayotgan munosabat ham ijtimoiy- me'yoriy shartlardan hisoblanadi.

(Теоретический сборник 1998. Аристов С. А. Невербальные компоненты коммуникации. Тверской лингвистический меридиан: (1998, №1. Ст. 23 – 30)).

Ishning ushbu qismida xushomad nutqiy aktini samaradorligi taminlovchi, mazmunini tarkiblantiruvchi, stukturasini shakllantiruvchi ijtimoiy qonuniyatlarini tahlil etishga harakat qilindi. Shu maqsadda xushomad ko'rinishlarini ikki tamoilga ko'ra tasniflash taklif qilindi.

Birinchidan: muloqat ishtirokchilarning o'zaro yaqinlik darajasiga ko'ra;

Ikkinchidan: ishtirokchilar orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy masofaga (distansiya) ko'ra. (“muloqat psixalogiyasi” 2006. N. Mahmudova).

Birinchi tamoilga ko'ra yani, avtor a adresantning tanishlik darajasini belgilash imkoniyati butun radiopesa, badiyfilm va dramatic asar hamdanasriy badiiy matnning yaxlitligini taminlashga va komunikantlar muloqati kechayotgan muayyan nutqiy vaziyatning tahliliga asoslanadi.

Tanishli darajasi nafaqt vaqt (zamon) chegaralari bilangina emas, balki munosabatlarning yaqinligi hamda birgalikda boshdan kechirgan hayotiy vaziyatlarning bardovomligi bilan ham belgilanadi. Muloqat ishtirokchilarining tanishlik darajasi va ular orasida majud bo'lgan ijtimoiy masofa tamoyiliga ko'ra muloqatning quyidagi miqdordagi ko'rinishlari qayd etildi.

Quyidagi qatordaxusomadning ko'rinishlari muloqatning qanday

shakllarida namoyon bo'lishi qayd etish mumkin bo'lmog' aks ettirilgan.

1. Mutloq notanish kishilar muloqoti. Bunday muloqotda ijtimoiy masofa mavjud bo'ladi;

2. Tanishish bosqichidagi muloqoti. (Bunda ham komunikatlar orasida ijtimoiy masofa saqlanib qoladi).

3. Tanishish komunikatlar orasidagi muloqot, muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa. Masofa shaxsiy.

4. Yaqin qarindoshlar orasidagi muloqot (shaxsiy).

5. Yaqin munosabatlardagi komunikatlarning muloqoti. Bunda ishtirokchilar orasida masofa intim, yani eng qisqa bo'ladi.

Ma'ruzachi va talabalar guruhi ortasidagi rasmiy masofa vaziyat taqozosi bilan ovozning kuchi baland bo'lishi va talafuzning adabiy shakilda bo'lmog'ini taqozo qiladi. Tahliliy materiallarni qarab chiqishish jarayonida mazkur xildagi misollar uchramaydi. Tilshunoslarning qayd etishlaricha muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa va ular munosabatlari yaqinligi ma'lum ma'noda etnomadaniy an'analarga verbal harakatlarning qoida va meyorlariga bog'liq bo'ladi. (Аристов 1998й; саҳифа?)

Xushomad nutqiy harakatining qiymati va ahamiyati ko'pincha muloqotning yuqorida sanab o'tilgan xillariga butunlay bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Xushomad nutqiy harakati begona komunikantlarning muloqotida eng oz miqdorlarda namoyon bo'ladi. Xushomadning eng ko'p miqdori esa tanish komunikantlarning muloqotidan joy oladi. Xushomadning mazkur darajada oz miqdorda bo'lishi begona komunikantlarning o'zaro xushomad qilishlari nojoiz bo'lgan xushomad, tbiyyki, illokutiv (kutigan) maqsadga yo'naltirigan bo'lishi mumkin.

Faust: Mein schönes Freulein, darf ich wagen

Meinen Arm und Gleit Ihr anzutragen

Margarete: Bin weder Fraulein, noch schön,

Kann ungeleitet nach Hause gehen.
(Sie macht sich los und ab).

Faust: Beim Himmel, dieses Kind ist schön!

So etwas hab ich nie gesehen.

Sie ist so fitt – und tugendreich,

Und etwas schnippisch doch zugleich.

Der Lippe Rot, der Wange Licht.

Ushbu vaziyatda xushomad nojoiz ekanligidan yosh qiz Margarita tomonidan o'z sha'niga haqorat sifatida qabul qilinadi. Zero, Faust yonidan tasodifan o'tib qolgan ma'suma qizga kutilmagan tarzda qo'lini uzatib bir dam hamrox bo'lmoqni taklif qiladi. Ushbu o'rinda xushomad aktining perlokutiv (kutilmagan) effekti Margaritning xushomadga javoban ko'rsatgan munosabatining verbal va noverbal tarzda ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bin weder Fräulein noch schön. (verbal ifoda xolati). Noverbal munosabati esa asar muallifi tomonidan quyidagicha izohlanmoqda: Sie macht sich los und ab. Mazkur xushomadning bunda samarasizligi nimada ifodalanganligi quyidagicha izohlanadi. Xushomad akti ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofa me'yori buzilganligida, ya'ni ijtimoiy va shaxsiy jihatlar meyorining aralashtirib yuborgarligidadir. Faust o'z xushomadining adresantiga nisbatan so'zda va amalda yo'l qo'yilgan hatti – harakati bilan adresatning shaxsiy daxlsizligi va erkinligiga tajovuz qildi; yani olmon ma'daniy an'anasi doirasida bunday muomilaga salbiy baholanishi tabiiydir. Xushomadning adresanti qo'llagan mavzu yo'nalishi shaxsiy intim harakterdagi muloqoy xilini taqozo qilgan bo'lardi.

Oralarida yaqinlik munosabatlari mavjud bo'lgan kommunikativlarining

muloqoti o'ziga hos jihatlarga ega bo'ladi va bunday suhbatdoshlar guruhida xushomad nutqiy aktining voqealanishi nutqiy aktining voqealanishi ayrim muhim omillarga bog'liq bo'ladi. Munosabatlarning yaqinligi, o'zaro daxldorlik mavjudligi, xis – tuyg'ularning, quvonch va tashvishlarning umumiyliigi ular ishtirok etayotgan muloqotning shaxsiy tabiatini taminlaydi.

Yuqorida keltirilgan kommunikanlar quyidagi tartibda namoyon bo'ladi:

Faust bilan Margarit ishtirokidagi xushomad notanishlar o'rtasida, (yigit va qiz), (turli jinsga oid shaxslar)dir.

Sofiya bilan Ledi o'rtasidagi xushomad yaqin tanishlar : „Ich kenne Sie, ja, seit 17 Jahre“.

Luiza bilan Ferdinand o'rtasidagi xushomad intim guruhga oid bo'lgan shaxslar o'rtasida uchraydi.

Prezidentning Ferdinandga xushomadi (ota – o'g'il).

Muloqot ishtirokchilarining tanishish bosqichida ekani muloqotda ham xushomad qilmoq imkonini beradi.

Ledi va Luiza sahnasi: (368 – 369 „Kabala und Liebe“).

(Ayol va qizcha). Keltirilgan misollarda mavju bo'lgan xushomad nutqiy akti jarayonida adresant- adresantga ruhiy yoki ahloqiy tasir o'tkazish maqsadi sari xushomaddan foydalaniladi. Bunday muloqot shaxslararo masofada mavjuddirki, dramatik asardagi bunday kinoyali muhitnig ifodalanishida asosiy rolni quyidagi til vositalari o'ynaydi.

Leksik 2. Gramatik. 3.sintaktik. 4. Pragmatik.

Taxlil uchun olingan mazkur misollar dramati asarda ko'p uchraydi.

Baholash manosiidagi emotional leksika. Bunday lug'aviy birliklar o'ziga xos alohida ifoda muhitini tashkil qiladi va duni ruhiy sharoitda qahramon xis –

tuyg'ularini ifodalash uchun qulay fursat mavjud bo'ladi.

Xushomad nutqiy aktini ifodalovchi sintaktik vositalar. Bu vositalar xushomadning tarkibini meyorligini taminlovchi xususiyatga egadir. Bundan tashqari xushomadning sintaktik vositalari aynan shu muhitda aynan shunday nutqiy aktining tarkibida bo'lishi ham tabiiy holdir.

Dramatik matnda turli elliptik konstruktsiyalarning (Wiederholung) mavjudligi ham xos belgilardandir.

Xushomadni ifodalashda emfatik vazifa bajaruvchi eksklomotiv (xis – xayajon) so'zlar (Got sei Dank!) odatiy lisoniy birliklardandir.

Turli tarkibdagi so'roq gaplar. (Werfragen, Wortfrage) So'roq so'zli so'roq gaplar. „Satzfrage“ so'roq so'zsiz so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar.

Bunday so'roq gaplar adresatning xushomadga qandaydir javob aytishini talab qiladi. Muloqotning rol o'yinlarga monand tabiati bu jarayonda ishtirok qilayotgan kommunikantlar tomonidan xushomad nutqiy aktining muayyan hilini tanlab olishda muhim omil bo'ladi.

Ijtimoiy omillarning xushomad nutqiy aktining voqelanishiga, ayniqsa uning pragmatik xossalarini namoyon bo'lishiga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy vaziyatning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Chunki, xushomad hamisha muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladi va xushomadning har qanday kategoriyasi o'ziga xos vaziyatlarda mavjudlanadi xushomadning adresanti va adresati vaziyatga muvofiq bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etuvchilar bo'lib harakat qiladilar. Ular ijtimoiy xulq – atvorning meyorlashtirilgan shakllariga amal qiladilar. Bu meyorlar esa, ko'pincha ishtirokchilarning muloqot vaziyatidagi maqomi tomonidan belgilanadi.

Podshoxning muhojir olimga qilayotgan xushomadi o'zlashtirma nutqiy akt shaklida ifodalangan. Taxlil qilingan xushomad nutqiy aktlarini

ishtirokchilarning maqomi belgilangan murakab turlaridan deb hisoblamoq kerak. Chunki, xushomadlarga va bu xushomadga nisbatan izhor qilingan munosabatlarda muloqot sodir bo'lgan jamimiyatda rasmiylik va adolat tamoyillar o'z ifodasini topgan bo'ladi. Zero, adresant va adresat maqomlari xushomad nutqiy aktining turini belgilab beradi. Shunga asosan muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, yo'nalishi (mavzu bandligi) va nihoyat xushomadning muayyan nutqiy vaziyatda joiz yoki nojoizligi ham anglashiladi.

“Verehrter Herr, entschuldigen Sie, aber es kommt mir schwer an, die richtigen Worte für meinen Dank zu finden”. (Alfred Kubin. Die Andere Seite. S – 26).

„Ich bin der Verleger und Redakteur des Traumspiegels des bestbekannten Blattes, eigene Druckerei!“ sprudelte er hervor. „Es ist gut, dass Sie da sind, Illustrierten auf einen Mann, wie Sie, warten wir schon lange“. (S – 56).

Nutqiy muloqot ishtirokchilari munosabati ish yuzasidandir. Ularning biri nashriyot muharriri, ikkinchisi nashriyotga kelgan mijoz. Mijozning ishdan ko'zlagan samarasi muharrirning ish mahorati bilan ish doirasi kabi sifatlarga bog'liq. Mijozning muloqot paytida qo'llayotgan xushomadli iborasi muharrirning kasbiy mahoratiga yo'naltirilganligi matnda ifodalangan. Bu ifoda quyidagi verbal vositalarda mujassamlashgan. Auf einen Mann, wie Sie, warten wir schon lange.

Mazkur muloqot ishtirokchilarining bajarayotgan ijtimoiy rollari bu muloqotni buyurtmachi ijrochi muloqoti deb, ya'ni, “biznesga” oid muloqoti deb hisoblanadi. Shu sababdan bunday turdagi qo'llangan xushomad o'zaro aloqani yo'lga qo'yish vositasi sifatida ishlatilayotganligi va buyurtmaning samarali ijrosini taminlaydigan sharoit yaratishga yo'naltirilganligi ma'lum

bo'ladi.

Lass dir helfen, Gerda; mit einem so prachtvollen (qimmatbaho) Umhang (qimmatbaho taqinchoq) muss man vorsichtig umgehen... Darf ich dir eines Kuss geben? Du weisst, ich liebe dich, wenn du mich auch immer verabscheut hast... Nein, ich verderbe dir nicht die Frisur, wenn ich dir den Hut abnehme... Dein schönes Haar! Solches Haar hat Mutter auch in ihrer Jugend gehabt. (T. Mann „Buddenbrooks“ S – 507).

Frau: Ah, guten Morgen, Herr Sekretare. Hat man auch wieder einmal das Vergnügen von Ihnen?

Xotini: Xush kelibsiz, sekretar afandi. Nihoyat poyqadamingiz bilan bizni mamnun qildingiz.

Wurm: Meinerseits, meinerseits, Frau Base? Wo einspricht, kommt ein Kavalierngäde burgtrliches vergnügen in garekine Rech nung.

Wurm: Hay-hay, uyingizni aslzoda baronlar obod qilib turganda... Sizni mamnun qilmoq bizga yo'l bo'lsin...

Frau: Was sie nicht sagen, Herr Sekretare! Des Herrn Mayors von Walter kohe Gnäden machen uns wohl ye und ye das Blasier, doch verachten wir darum ni mand.

Xotini: Xo'p gaplarni gapirasiz –da, sekretar afandi. To'g'ri, mayor fon Valter afandi o'z oliy marhamatlari bilan ora-sora bizni quvontirib turadilar. Ammo biz, bu narsalarga taltayib ketib hech kimni o'zimizdan past tutmaymiz.

Müller !Qani, shlyapangizni qo'ying, Vurm afandi!

Avvalgi sahifalarda muloqat ishtirokchilari turli toyifa va guruhlariga mansub bo'lishi mumkinligi haqida ayrim qaytlar mavjud. Bundan tashqari muloqatda ishtirok etuvchilar turiga bo'lishda muhim omillardan yana biri shtirokchilarining mudom yagona jinsga bo'lmasligidir. Shu nuqtai nazardan muloqat nutqiy aktlarini ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ishtirokchilari bir jinsga mansub bo'lgan nutqiy aktlar.
2. Ishtirokchilari turli jinsga mansub bo'lgan nutqi aktlar.

Nutqiy aktning birinchi xil ko'rinishlari shunday tavsiflanadiki , uning ishtirokchilari er va er, ayol –ayol tartibli bo'ladi.

Nutqiy aktning ikkinchi xil ko'rinishlariga esa ishtirokchilarning turli jinsga mansubligi xosdir. Yani er ayol. Nutqiy aktlarning har ikkali ko'rinishida komunikatlarning ma'lum jinsga mansubligiga dahldor nutqiy harakati qo'lanilayotgan lingvistik va g'ayri lingvistik vositalar mavjuddir.

Ishtirok etuvchi tomonlar bir xil jinsli bo'lganda komunikatlarning muloqat aktlari avvalom bor o'ziga xos mavzular bo'yicha sodir bo'ladi. Bunday muloqat ishtirokchilarining munosabatlariga ular orasida rollararo muvozanat mavjudligi xosdir. Bunday muvozanatdagi komunikatlar munosabatlarida do'stona yaqinlik o'zaro yordamga tayyorlik, ruhiy- ahloqiy qo'llab –quvvatlash, ba'zan esa mutoyiba (qochirim) yoki kinoya o'ziga xos o'rin tutadi.

Umumiy xulosalar

1.tilda mavjud ifoda vositalari orqali muayyan mazmun mohiyatini ochishi mumkin bo'lgan har qanday lingvistik voqelikni moddalik kategoriyasi sifatida talqin qilish mumkin. Moddalik katego'ryasi turli ma'nolarni (real, noreal, mumkinlik, zarur, istak, tasdiq, inkor va h.k.) anglatishiga asoslanib hushomad manosiidagi til birliklarini ham shu kategoriya tizimi doirasida tadqiq qilish mumkin.

3. Xushomad kategoriyasi universallik kasb etuvchi dunyodagi barcha tillar uchun xos bo'lgan boshqa lingvistik hodisalar kabi til va tafakkur munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida tilning kommunikativ funksiyasini o'zida namoyon etuvchi model katego'riyadir.

3. Strukturasi turlicha bo'lgan nemis tilida xushomad ma'no qurshovidagi til birliklari o'ziga xos sistema sifatida maxsus o'ringa ega.

4. Adabiy til va og'zaki nutq materiallarini umumlashtirilgan holda markazida xushomad ma'nosiga birlashtiruvchi mazmuniy maydon sifatida tadqiq etish til va nutq munosabatining lisoniy mohiyatini ochish imkonini beradi.

6. Xushomad katego'ryasining lingvistik omillari turli tabiatli bo'lib, tilning barcha sathlarini qamrab oladi. O'zbek va nemis tillarida xushomad ma'nosini yuzaga chiqaruvchi fonetik, leksik va grammatik vositalar mavjud.

Xushomad birliklari nutqiy hodisadir. Ular nutq jarayonida hosil bo'lib, nutqiy vaziyatni aniq, serqirra va obrazli tasvirlaydi, nutq jarayonida turli vaziyatlarda turli pragmatik ma'no xususiyatlariga ega.

O'zaro yakdillik aloqalari bilan bog'liq kommunikantlar bir – birliklarini odatda bir necha yil yoki uzoq yillar davomida yetarlicha yoki yaxshi biladilar.

Umuman olganda bu toifadagi kommunikantlarning muloqotlari shaxslararo va bu shaxslar masub bo'lgan ijtimoiy guruhlararo me'yorlashib qolgan aloqa turlarining o'ziga xos chatishib ketganligi kuzatiladi. Aloqalarning bunday chatishib ketganligi sababli, ba'zan ijtimoiy me'yorlar va kelishuvlar (shartlari)dan chetga chiqish hollari kuzatiladi. Bunday xushomadga nisbatan ifodalangan munosabat bir oz qo'pol, ba'zan haqoratomuz iboralardan tarkib topadi. Garchand muloqot ishtirokchilari orasidagi aloqalar shakli va masofasi g'ayri me'yoriy bo'sa ham xushomadning bunday ko'rinishini shartli tarzda kinoyali xushomad deb atash mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday nutqiy harakat olmonzabon lingvomadaniy muloqotiga genderlik xususiyati xos ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqatan, quyida radip'esadan keltirilgan parcha muloqot ishtirokchilarining har ikkalasi bir muncha "nordon" iboralar bilan ("sauere Worte") atasada, bunday iboralarni kommunikantlar haqorat deb bilmaydi.

Ansager: Promptol, das Abfuhrmittel (yumshatgich tibbiy vosita) für jedermann.

Herr Professor sind hoffentlich nicht ungehalten, weil ich Ihnen hin und wieder ins Wort falle? Natürlich nie an einer Stelle, wo es zu

Mißverständnissen Anlaß geben könnte. Dann wissen Sie, der Respekt vor

einem Mann der Wissenschaft...
Professor: Na, Ihre Rücksicht (andisha) ist rührend. Wenn Sie das noch lange weiter machen, dann brauchen die Leute gar kein Abfuhrmittel mehr. (Drei Kurzspiele. Moskau 1963. "Des Teufels Wettermacher" von Alfredo Bauer). (Shayton buyurtmasi bilan ob-havo yasovchi). (Mann zu Mann Männliches gespreches).

Yuqorida keltirilgan parcha u olingan butun rodiopie'esa kabi yumoristik janrga dahildor. Shu bois bunday kinoya xushomad adresant maqsadiga erishuvchi kuchli badiiy vositadir.

Olmonzabon lingvomadaniy muhitdagi muloqot ishtirokchilari orasida uzoq muddat davomida shakllangan yaqinlik garchand ular orasida shaxsiy masofa bo'lmasada, ijtimoiy farqlar o'z relevantligini (qiymatini) yo'qotgan.

Sophie: Aber, Mylady – das ist die Laune nicht, eine webenbuhlerin zu empfangen. Erinnern Sie sich, wer Sie sind. Rufen Sie Ihre Geburt, Ihren Rang, Ihre Macht zu Hilfe. Ein stohlzeres Herz musst die stolzste Pracht Ihres Anblicks erheben.

Lady (zerstreut): Was schwatzt Närrin da?

Sophie (boschaft): Oder ist es vielleicht Zufall, dass eben heute die Kostbrasten Brillanten an Ihnen blitzen? Zufall, dass eben heute der rechste stoff Sie bekleiden muss – das Ihre Antichambar von Heiducken und Pagen wimmelt und das Bürgermädchen im fürstlichsten Saal Ihres Palastes erwartet wird? (F. Schiller. „Kabale und Liebe“ S - 368).

Mazkur misoldan ko'rinib turibdiki, kommunikatsiya ishtirokchilari ayol – ayoldan iborat bo'lganda, Sofining (xizmatchi qiz) hushomadiga nisbatan ifodalangan munosabat (Sofi) anchagina qo'pol, haqoratomuz bo'lsada, hushomad muallifi Ledi Milfordning dag'al so'zlariga etibor bermaydi, balki, Lediga nisbatan hushomadni „oshirib“ bormoqda. Zero, Sofining hushomaddan

ko'zlangan intensiyasi Ledi Milfordni ruhlantirishdan iborat. (Xo'jayin va xizmatchi o'rtasidagi ijtimoiy farq deyarli neytrallashgan). Shu boisdan va ayniqsa muloqot ishtirochilari bir jinsga mansub ekanida kinoyali hushomad asl hushomad o'rnida qabul qilinyapti. Bu esa ayollar muloqotiga xos genderlik xususiyati mavjud ekanini anglatadi, yani ayollarga xos mavzuda va ayollarga iboralar bilan muloqot qilinmoqda.

Er va ayol muloqotida hushomadning genderlik xususiyati.

Wurm: Meinerseits, meinerseits, Frau Base? Wo entspricht, kommt ein Kavaliersgnäde.

„makr va muhabbat“ dramasidan keltirilgan parcha guvohlik beradiki sekretar Wurm va uning xotini o'zaro muloqot paytida bir – birini xushomadlar bilan siylamoqda. Xushomadning adresati bo'lmish sekretar Wurm ko'rinishidan xotini tomonidan aytilayotgan xushomadni go'yo qabul qilayotganday bo'lsada mazkur xushomadni bilvosita qabul qilayotganini anglatishga xarakat qiladiva buni uddasidan chiqmoqda. Ayol tomonidan qo'llangan xushomadni bilvosita bo'lsada tasdiqlab qo'yish zarurati sekretar Wurmni illokutiv maqsadini ifodalovchi ikkinchi bora ayol tomonidan xushomad qilishini taminlayotganini anglatadi.

Xushomad qilishga majburlovchi bunday illokutiv ibora muzikat Millerini o'z xotiniga sekretar Wurm ehtirom ko'rsatish va unga stul keltirishini undaydi. Muzikant Millerning sekretar Wurmning yasama xushomadiga chin dildan ko'rsatayotgan reaksiyasi tabiiy, chunki suhbatdosh adresatga Wurm bilan Miller o'rtasida sodir bo'layotgan muloqotda qo'llangan xushomadlar muzikant Millerning Wurmga nisbatan ehtirom ko'rsatishga majbur qiladi. Bunday vaziyatda Wurm ifodalayotgan xushomadni javobsiz qoldirish yoki aksincha nohush so'z yoki tanbeh berish etiket qoidasiga oid bunday muomala hurmat –

ehtirom tamoyiliga zid bo'lardi. Shu sababli muzikant Miller sekretar Wurmni „janobi Wurm“ deb murojaat etishga va „shlyapangizni mana bu joyga qo'ying“ deb xushomad qilishga majbur bo'ladi. Muzikant Miller bu sahnada sekretar Wurm bilan xotini o'rtasidagi xushomadlar almashinuvidan aslida juda mmamnun bo'lmasada yuzida hayratomuz ifodasini ko'rsatishga o'zida kuch topabiladi. Sekretar Wuemning nutqida yasama takallef borligini qalban his qilibturibdi. Chunki uning so'zlarida bir qarashda ayon bo'lgandek tuyuladiki, Milleroilasi uchun oqsuyaklar zotidan bo'lmish prezident Von Walternig o'g'lini xukmdor bo'lishi odatdagidan ko'ra kattaroq baxt bo'lishi turgan gap. Millerning xotini Miller xonim uchun o'z erining sekretarga ko'rsatayotgan muomalasi munosib emasdek tuyuldi va quyidagi so'zlarni qo'shimcha qiladi.

Frau Miller solltest du nur wunderhübsche Billeter auch lesen, die der gnedige Herr an deine Tochter auf schreiben tut. Guter Goot! Das sieht man's ja sonnenklar, wie es ihm pur um ihre schöne Seele zu tun ist.

Yuqoridagi misolning tahlilidan ko'rinib turibdiki musiqachi Miller Wurmning kinoyali hushomadiga nisbatan er kishiga xos bosiqlik bilan munosabat bildiriyapti, uning Wurmga nisbatan ko'rsatayotgan ehtiromi kamtarroq.

Aksincha, Miller xonim esa Wurmning so'zlaridagi kinoyani payqamaydi va uning xushomadini to'g'ri qabul qiladi. (ayollarga xos soddalik bilan). Xushomad nutqiy akt jarayoni er va ayolning xushomadiga munosabatida o'ziga xos genderlik belgilari namoyon bo'lishini ko'rsatyapti.

Muloqot vaziyati norasmiy hamda o'zaro ishonch muhitida sodir bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan va dastlabki tahlildan o'tkazilgan xushomadning nutqiy akt muloqotini nutqiy kontekstdan ajratishning zarurati yo'q. chunki mazkur xushomadlar adresatning malum darajada ishonch etiqodiga o'zgartirish kiritishdan iborat strategiyasining ajralmas komponenti sifatida namoyon

bo'Imoqda va shu tufayli kommunikativ o'rtasidagi ushbu muloqotning doirasidagina qiymatga ega. Insonlarni turmush tashvishlari va qiyinchiliklari yaqinlashtirish hammaga ma'lum, shu boisdan xushomad mushkul vaziyatdagi suhbatdoshga ijobiy ta'sir o'tkazib uning muammoli vaziyatdan halos etish taktikasining eng ishonchli omillaridandir.

Greta Hagen. „hast du Kummer, Christa? Haben Sie dir Schwierigkeiten gemacht?“
Christa: schüttelte den Kopf und erzählte von den Verwandten Herz

Klassenlehrers, die sie erwarteten. Sichtlich beeindruckt murmelte sich: „Dein Lehrer hat ja eine ganz vornehme Verwandtschaft“. Sie lächelte Christa zu „wir haben nämlich alte Laute, und du wurdest dich sicher bei ihnen langeweilen, Freilich, wenn du es gern willst“. Christa ganz gefangen in der herzlichkeit der Frau, beeilte zu sage: „ich belibe lieber bei euch – wenn ich darf!“

„Natürlich darfst du, Goldkind“, versicherte Greta.
(Christa – 13 Kapitell (68 - s)) (J. Brezani)

Hushyoquchi iliq so'zlar Kristaning sha'niga birin ketin izhor qilinyapti. Xushomad so'zlarning muallifi Krista uchun o'gay ona bo'lsa – da, tarbiya bergan o'rmonchining ayoli – Lensch xonimdek kamsuqum va jiddiy so'zlar bilan muomala qilib o'rgatgan emas. Muloqot vaziyati Greta xonimning so'zlari va muomalalarini samimiy xushomad deb qarashga imkon beradi. Ona va bolaning kommunikatsiyasi doirasidagi o'zaro munosabatlar shahsiy munosabatlar turidab bo'lib, norasmiy muloqot ko'rinishidir. Kommunikativ ro'llarining nosimmetrik ekanligi ularning turli yoshga mansubligi bilan va oila deb nomlangan ijtimoiy yacheyka doirasida maqomlarning turlicha ekanligi bilan belgilanadi. Bizningcha yosh qizchani barcha istak – xoxishlarini qarshiliksiz qo'llab quvvatlashning xushomad muallifining xushomad adresatiga nisbatan ustunligini implitsit (yashirin) ifodalashning o'zginasidir.

O'sib keladigan avlodning ko'zlangan maqsadga muvofiq tarbiyasida rag'batlantirish muhim ro'l o'ynaydi. Garchand Greta – (Gretaning o'gay onasi) bunday fikrni voqelikka aylantirishga urinayotgan bo'lsa ham inson tanishish vaziyatidagi muloqoti malum ijtimoiy guruhning verbal va nonverbal etiket shartlariga amal qilishlari sharoitida sodir bo'ladi. Chunki kommunikatsiyalar albatta muayyan ijtimoiy guruhning vakillari bo'lishi tabiiydir. Bunday muloqot ko'rinishida izhor qilinayotgan xushomad nutqiy akti muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni tanishish ijtimoiy masofa bergan imkoniyat darajasida sodir bo'ladi va bunday xushomad standart nutqiy vaziyat xususiyatlari bilan chegaralanadi. Shu sababdan rasmiy muloqot doirasidagi xushomad nutqiy akti odob – ehtiromga doir deb sanalmog'i, hamda shu tufayli polifunksional deb baholanmog'i mumkin. Shunday qilib, tanishmoq bosqichi xushomadning olmonzabon lingvomadaniyatida asosiy funksiyasi ijtimoiy yaqinlashtirish. (Soziale Annäherung) dan iboratdir. Yaqin kishiga nisbatan ishor qilinayotgan xushomad uning tashqi qiyofasi, shaxsiy (kasbiy) sifatlari bilan faxirlanishni ifodalashga xizmat qiladi. O'rinli vaziyatda ishor etilgan xushomad kommunikatsiyalarning hayrihohlarcha muloqotini ta'minlaydi.

Misol: (Oeferdlich).

“Konsul Budden brock ist bei solchen Verwandlungen besser zu gebrauchen als mancher Jurist“.

Das Waren seine Worte...

“Konsul Budden brock: „ Na, das ist mir sehr schmeichehaft Wenzel!

(T. Mann. „ Budden brocks. s-320“).

Oewerdick qo'lga kiritmoqchi bo'lgan yer uchaskasi uchun Konsulbuddenbrockning diplomatik mahoratidan foydalanmoqchi, shu sababdan u Tomas Buddenbrockning yuristik mahoratini xushomad obyekti deb olyapti. Konsul Tomas Buddenbrock esaxushomadga verbal (oshkora) munosabat

bildirishdan o'zini tutib turolmaydi shu munosabat bilan u o'z so'zida xushomadni mamnuniyat bilan qabul qilganligini ifodalash uchun schmeichelhaft (sariyog'dek eritib yuboryapdi) so'zidan foydalanishning boshqa chorasi qolmaydi. Shuningdek, hukmdor biror ahli ilmini xushomad uchun nishon qilib olishini ham ushbu qatorga taaluqli deb hisoblash mumkin, agar bunday kommunikantlar bir jinsli bo'lsa.

Der preussische gesandte begleitete Humboldt zur Audienz. Der Zar drückte ihm lange die Hand, versicherte ihm, dass sein Besuch eini Ehre Russland sei; (Daniel Kehlmann. „Fabelhafte Dialoge!“ dachte Humboldt später. S - 240).

UMUMIY XULOSALAR

Tilda mavjud ifoda vositalari orqali muayyan mazmun mohiyatini ochishi mumkin bo'lgan har qanday lingvistik voqellikni modallik categoryasi sifatida talqin qilish mumkin. Modallik categoryasi turli ma'nolarni (real – noreal, mumkinlik, zarur, istak, tasdiq - inkor va hokazo) anglatishiga asoslanib, xushomad ma'nosidagi til birliklarini ham shu kategoriya tizimi doirasida tadqiq qilish mumkin. Xushomad categoryasi universallik kasb etuvchi dunyodagi barcha tillar uchun xos bo'lgan boshqa lingvistik xodisalar kabi til va tafakkur munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida tilning kommunikativ funksiyasini o'zida namoyon etuvchi modal categoryadir. Strukturasi turlicha bo'lgan o'zbek va nemis tillarida xushomad ma'no qurshovidagi til birliklari o'ziga xos sistema sifatida maxsus o'ringa ega. Adabiy til va og'zaki nutq materiallarini umumlashtirgan xolda markazida xushomad ma'nosiga birlashtiruvchi mazmuniy maydon sifatida tadqiq etish til va nutq munosabatining lisoniy mohiyatini ochish imkonini beradi.

Xushomad categoryasining lingvistik omillari turli tabiatli bo'lib, tilning barcha sathlarini qamrab oladi. O'zbek va nemis tillarida xushomad ma'nosini

yuzaga chiqaruvchi fonetik, leksik va grammatik vositalar mavjud.

Xushomad birliklari nutqiy hodisadir. Ular nutq jarayonida hosil bo'lib, nutqiy

vaziyatni aniq, serqirra va obrazli tasvirlaydi, nutq jarayonida turli

vaziyatlarda turli pragmatik ma'no xususiyatlariga ega.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Асосий адабиётлар:

1. Каримов И. А.. Баркамол авлод орзуси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2000. 56 , бет
2. Каримов И. А.. Юксак маънавият - энгилмас куч. Тошкент, «Маънавият», 2008 5 бет
3. Каримов И. А.. Юксак маънавиятли мутахассислар- тараққиёт омили. Тошкент. Ўзбекистон, 1995. 45 бет
4. Каримов И. А.. Янгича ишлаш ва фикрлаш давр талаби. Тошкент Ўзбекистон, 1997 65 бет
5. Каримов И. А.. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент, 1998 5 бет
6. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида» ги Қонуни, 1997
7. Germanistisches Jahrbuch 1999. GUS Das Wort. Reihe Germanistik, DAAD
8. Ольшанский И.Г. Лексикология современного немецкого языка.- М.: Москва. 2005.
9. Якендофф.Я. Semantics and cognition. – Cambridge- Mass.,1993.
10. Кубрякова Е.С. Язык и знание.- М.,2004.
11. Метслер. С. Н. Glück.-Stuttgart-Weimar., 2000.
12. Балдауф.Хр. Metapher und Kognition. Berlin., 1997.
13. Langacker P.B. Foundation of Cognitive Grammar. Vol 1. Standfort, 1987.
14. Шварц.М. Einführung in die Kognitive Linguistik 1992 .
15. (S.Kubryakova 2000.4-5-bet).
16. Markt.Deutsch für den Beruf (2008.Ausgabe 42,9-8 Eine Runde Lob) Ehrliches Lob.
17. (1980.Franck.D. Grammatik und Konversation-1980.36).
18. Gumbold. A.A.Potebnya, G.V.Kolshanskiy, Farmanovskiy.)
19. Ўзбекистон Республикаси махсус олий Ўқув юртлари учун роман-герман филологияси мутахассислиги бўйича ўқув дастурлари. Тошкент, 1997 45 бет.
20. Autor: Barbara Frischmuth Buch: Die Schrift des Freundes., Aufbau Taschenbuch Verlag GmbH, Berlin 2000
21. Умархўжаев М.Э ., Назаров К.Н.. Немисча-ўзбекча-русча фразеологик луғат Т, 1996.

- 22..Грушевицкая Т.Г. Садахин А.П. Культурология, Москва, 2007.
 23. Никитич Л.А. Культурология, М, 2008.
 24. [Шайкеевич Сборник научных трудов. МГПИЯ 1978 г. 22 – 25 О. Естественных классах в лингвистике]”
 25. (Devekin ,1979. Kolegayeva 71/ nemetskiy razgavorniy rech)
 26. (Kolshanskiy 99/ Kolegayeva 71/ inostrannix yazik shkole. 1985 11-14с
 27. Wunderlich Metzing Zurentwicklung prozeduraler Dialogmole. (Jm Dialogmuster und Dialogrosesse .- Hamburg Buske 1981 9.51-57).
 28. (“Muloqot psihologiyasi” 2006. N. Mahmudova).
 29. Ф. Шиллер. (368 – 369 „Kabale und Liebe“).
- 2. Қўшимча адабиётлар**
30. Alfred Kubin. Die Andere Seite. S – 26).
 31. (Daniel Kehlmann. „Fabelhafte Dialoge!“ dachte Humboldt später. S - 240).
 32. T. Mann „Buddenbrooks“ S – 507
 33. Daniel Kehlmann. „Fabelhafte Dialoge!“ dachte Humboldt später. S - 240
 34. Christan – 13 Kapitell (68 - s)) (J. Brezam
 35. (Thomas Mann. „Buddenbrooks“ S – 379).
 36. Г. Г. Поченцов. О месте прагматического элемента в лингвистическом

описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. Калинин:

Изд. – ва К. Г. У. 1985. – С. 12 – 18.